

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
OLIY VA O'RTA TIBBIY TA'LIM BO'YICHA O'QUV-USLUB IDORASI
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

FARMAKOLOGIYA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
OLIY VA O'RTA TIBBIY TA'LIM BO'YICHA O'QUV-USLUB IDORASI
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

Tasdiqlayman
O'z R SSV kadrlar,
fan va o'quv yurtlari
bosh boshqarmasi boshlig'i
Sh.E.Ataxanov
“-----”-----2008 y.

FARMAKOLOGIYA FANIDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent 2008 y.

Tuzuvchilar: O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor S.S.Azizova farmakologiya kafedrasini mudiri - t.f.d. professor - A.A.Abdusamatov, t.f.d. dotsent – S. J.Aminov, t.f.n. dotsent - A.A.Yunusov, t.f.n. dotsent Sh.T.Ziyaeva assistentlar: G.A.Karimova, K.T.Mirzaaxmedova, I.B.Zufarova, A.O.Kaldibaeva ishtirok etganlar.

Taqrizchilar:

1. ToshFarMI farmakologiya va klinik farmatsiya kafedrasining mudiri, professor X.U.Aliev;
2. ToshTA farmakologiya kafedra professori M.M.Azimov;
3. ToshPTI patologik fiziologiya, patologik anatomiya sektion kurs bilan kafedrasining mudiri, professor Yo.U.Zokirov.
4. ToshPMI o'zbek, rus va lotin tillari kafedra mudiri K.Sh. Turdieva.

O'quv-uslubiy qo'llanma ToshPMI Markaziy Uslubiy Kengashining 22.10.08 yilda bo'lib o'tgan № 2 sonli yig'ilishida ko'rib chiqilgan va Ilmiy Kengashga tavsiya qilingan.

O'quv-uslubiy qo'llanma ToshPMI 29.10.08 yilda bo'lib o'tgan № 3 sonli Ilmiy Kengashida tasdiqlangan.

Ilmiy Kengash kotibasi

Shomansurova E.A.

KIRISH

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma farmakologiya fanini amaliy mashg'ulotlariga bag'ishlangan bo'lib - fanni muammolarini, tarixini, umumiy va xususiy farmakologiya, umumiy retseptura bo'limlarini, dori moddalarini qo'llanishda deontologik omillarini, ular keltiradigan noxush asoratlarni, ular bilan o'tkir zaharlanishni davolashga bag'ishlangan.

Maqsad va vazifalar: Asosiy maqsad dori moddalarining ta'sirini, ta'sir mexanizmini o'rganishga qaratilgan. Umumiy farmakologiya bo'limida dori moddalarni farmakokinetika va farmakodinamikasini umumiy qonun-qoidalarini o'rganiladi. Xususiy farmakologiya bo'limida nerv sistema, ijrochi a'zolar, metabolizmga ta'sir etuvchi va mikroorganizmlarga qarshi moddalar o'rganiladi. Bolalarda qo'llaniladigan dori moddalarni farmakokinetikasi va farmakodinamikasini yoshiga qarab o'zgarishi, gematoentsefalik, platsentar to'siqni o'tkazuvchanligini, jigar fermentlarini to'la-to'kis rivojlanmaganligi, buyraklarni siydik chiqarish faoliyatini takomillashmaganini ko'zda tutiladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar qo'yilgan vazifalarni bajarib, umumiy farmakologiyani qonun-qoidalarini, farmakokinetika va farmakodinamika asoslarini o'zlashtiradi. Xususiy farmakologiyada har bir mavzu o'tilganda, dori moddalarni tasniflash, ularni ta'sir mexanizmini, qo'llanishini, qo'llanishga monelikni, moddalar ko'rsatadigan noxush asoratlarni, ular bilan o'tkir zaharlanganda ko'riladigan chora - tadbirlarni o'zlashtirish shart. Buning uchun amaliy mashg'ulotlarda mavzuga oid dori moddalarni to'plami bilan tanishib, ularga qo'llanishga qarab retseptlar yozish, farmakodinamika va farmakoterapiyadan vazifalar bajariladi.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi. Mazkur dastur bir tarafdin nazariy fanlar (fiziologiya, patologik fiziologiya, biokimyo), ikkinchi tarafdin klinik fanlar - pediatriya, yuqumli kasalliklar, xirurgiya, anesteziologiya va boshqalar bilan bog'langan holda metodologik usullarni qo'llab, farmakologiya fanini chuqur o'rganishga qaratilgan. Farmakologiyani quyidagi bo'limlari: neyrotrop moddalar, ijrochi a'zolariga va tizimlarga, metabolizmga ta'sir etuvchi, ximioterapevtik moddalar va fitoterapiya asoslari o'zlashtiriladi.

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar bajarishi lozim bulgan vazifalar:

1. Har-xil dori shakllariga retseptlar yozish.
2. Retsepturadan vazifani bajarish.
3. Mustaqil bajarish uchun keltirilgan savollarga javob berish.
4. Farmakodinamikadan vazifani bajarish - qo'yilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini topish.
5. Mavzu bo'yicha dori moddalarni to'plami bilan tanishish.
6. Vaziyatli vazifalarni bajarish.
7. Farmakoterapiyadan vazifani bajarish, pediatriyada keng qo'llaniladigan dori moddalariga retseptlar yozish.
8. Jadvallar, chizmalar, formulalar, slaydlarni tahlil qilish.
9. Interaktiv vazifalarni bajarish.
10. Mavzuga oid referativ ma'lumotlarni eshitish va muxokama qilish.

Interaktiv vazifalarni bajarish kichik guruxlarda quyidagi uslublar bilan olib boriladi: 1) «miyaga hujum»; 2) «intsident»; 3) «dumaloq stol»; 4) «muammoni hal qilish»; 5) «qorchalar»; 6) «asalari uyasi»; 7) «qora quti»; 8) «qaynoq kartoshka»; 9) «romashka gul».

1. «Miyaga hujum» uslubida 4-5 talabalardan iborat kichik guruxlar tuziladi, ularga savol beriladi, javobga vaqt ajratiladi. Talabalar javoblarni ochiq muxokama qilishadi, javoblar g'oyalarga aylanishi mumkin. Domlalar aralashmaydilar, xech qanaqa ko'rsatmalar berish mumkin emas.
2. «Intsident» uslubida talabalarni ekstremal vaziyatlarda ishlashiga qaratilgan. Talaba muammo to'g'risida (vaziyatli vazifa) tezlik bilan qisqacha axborot keltiradi. Masalan dori moddalar bilan o'tkir zaharlanganda tez yordam choralarni keltirish. Talabalar ushbu

vazifani tez yechib, 1-2 minut ichida qaror qabul qilishlari kerak. Ushbu uslub talabalarni fikr yuritishini faollashtiradi va ekstremal vaziyatlarda ishlashga o'rgatadi.

3. «Dumaloq stol atrofida» uslubida stolga vazifa yozilgan qog'oz beriladi, stol atrofidagi hamma talabalar o'zini javobini yozishadi, keyin javoblar muxokama qilinadi, noto'g'ri javoblar uchiriladi, to'g'ri javoblar soni bo'yicha talabalarni bilimi aniqlanadi. Shuni esda tutish kerakki yaxshi qo'lgan savol - to'g'ri javobni yarmisini tashkil qilishi kerak.
4. «Muammoni hal qilish» uslubini bajarishda talabalar guruxlarga A, B, V (3tadan guruxda) bo'linadi. Ularga 1, 2, 3 nomerlar beriladi, keyin ulardan boshqa guruxlar tuziladi. Hamma 1-chi nomerlar - 1-chi guruxga, 2-chi nomerlar 2-chi guruxga, 3-chi nomerlar 3-chi guruxga birlashtiriladi. Guruxlarga vazifalar beriladi. Masalan «Kardiotonik moddalar» mavzu bo'yicha mashg'ulotda 1-chi guruxga «Yurak glikozidlarini ta'sir mexanizmi», 2-chi guruxga - ularni qo'llanilishi, 3-chi guruxga yurak glikozidlarini bolalar amaliyotida o'ziga xos ta'sirlari to'g'risida 10 minut muhokama qilinadi. Keyin, 1-chi, 2-chi, 3-chi nomerlar oldingi guruxlarga (A, B, V), qaytariladi, bunda 1-chi guruxda bo'lgan talabalar yurak glikozidlarini ta'sir mexanizmini, 2-chi gurux talabalar - qo'llanilishi, 3-chi gurux talabasi - yurak glikozidlarini bolalar amaliyotida o'ziga xos ta'sirlari to'g'risidagi javoblarni keltiradi, talabalar o'zini fikrlari bilan 15 minut almashishadi. Keyinchalik boshqa savolga o'tiladi.
5. «Qorchalar» uslubida 2 gurux talabalar bitta muammo yoki vaziyatni hal qilishadi - eng ko'p to'g'ri javob olish uchun. Masalan «rezerpin moddasini farmakologik xususiyatlari». Har bir to'g'ri javobga guruxga qarab ball yoziladi. Eng ko'p ball olgan gurux a'lo baholanadi.
6. «Asalari uyasi» uslubida bitta muammo gurux talabalari bilan yoki ikkita kichik gurux bilan muhokama qilinadi. Vazifalar bir xil yoki har xil bo'lishi mumkin, 10-15 minut ichida guruxlar ushbu muammolarni hal qilishga urinadilar va ularni keltiriladilar. Eng yaxshi javob tanlanadi. Masalan «Sulfanilamid moddalarni farmakokinetikasi».
7. «Qora quti» usulida - qora quti keltiriladi, uni ichida noma'lum dori modda bo'ladi. O'sha modda to'g'risida qisqacha ma'lumot keltiriladi. Talabalar qutidagi moddani nomini keltirishi kerak. Masalan qora qutida Yallig'lanishga qarshi, siklooksigenaza fermentini ingibitsiya qilib prostaglandinlar hosil bo'lishini kamaytiradigan, hamda bu modda og'riq qoldiruvchi, haroratni tushiruvchi xususiyatga ega. Ushbu moddani nomini aytish kerak. Bu modda nosteroid Yallig'lanishga qarshi modda - indometatsin yoki butadion.
8. «Qaynoq kartoshka» – bu interfaol o'yinda talabalar kichik-kichik guruxlarga bo'linib, ularga “qaynoq kartoshka” uzatiladi va o'yin to'xtatilishi bilan savol beriladi, qo'lida “qaynoq kartoshka” qolgan talaba savolga javob berishi kerak.
9. «Romashka guli» – bu o'yinda qog'ozlarga savollar yozilib, romashka guliga o'xshatib ushlab turiladi, talaba bu guldan tortib olib, qo'yilgan savolga javob beradi.

Talabalarni bilimini baxolash. Talabalarni bilimi har bir mashg'ulotda baholanadi, 6 oraliq baxolash o'tkaziladi. Yilning oxirida yakuniy baholash – test usulida imtixon o'tkaziladi.

Talabalar egallashi lozim bulgan amaliy ko'nikmalar:

1. Dori moddalarning ta'sirini, ularning farmakologik xususiyatlarini, ta'sir mexanizmini hisobga olgan holda tahlil qila olish.
2. Dori moddalar guruhlarini to'g'ri aniqlash.
3. Dorinoma (retsept) yozishning qoidalarini bilish.
4. Har xil dori moddalar shakllariga dorinoma yoza bilish.
5. Dori moddalarini bemorning yoshiga qarab miqdorlash.
6. Vaziyatli holatlarda dori moddalarning ta'sirini bilish va aniq tavsiya etish.
7. Dori moddalari bilan o'tkir zaharlanishda bemorga tez yordam ko'rsata bilish.

Fanni o'zlashtirishda yangi texnologiyalar qo'llash. Farmakologiya fanini o'zlashtirishda yangi texnologiyalardan – elektron darslikdan kerakli mavzular, dori vositalarning multimediali ta'sir mexanizmlari, kompyuterlashtirilgan testlar, interaktiv usullar, videofilmlar, slaydlar tahlil qilinadi.

Amaliy mashg'ulotlar (2 soat) va ma'ruzalarning (2 soat) mavzulari

№	Amaliy mashg'ulotlar mavzusi	Ma'ruzalar mavzusi
I bo'lim. Umumiy retseptura va umumiy farmakologiya		
1.	Kirish. Farmakologiyani asosiy vazifalari. Umumiy retsepturani qonun-qoidalar. Qattiq dori moddalar shakllari: poroshoklar, kapsulalar, tabletkalar, drajelar.	1. Kirish. Farmakologiyani tarixi. Maqsad va vazifalari. Dori moddalarning farmakokinetikasi.
2.	Suyuq dori shakllari. Eritmalar, damlamalar, qaynatmalar, miksturalar, nastoykalar, suyuq ekstraktlar, emulsiyalar, suspenziyalar. Nastoyka, ekstrakt va yangi Galen moddalari.	2. Umumiy farmakologiya. Dori moddalarning farmakodinamikasi.
3.	Suyuq dori shakllari. Sirtga va in'ektsiya uchun qo'llaniladigan eritmalar.	
4.	Yumshoq dori shakllari. Malxamlar, pastalar, linimentlar, shamchalar, shariklar va boshqa dori moddalari	
5.	Umumiy retsepturadan yakuniy dars. 1-OB	
6.	Umumiy farmakologiya. Farmakokinetika va farmakodinamikani umumiy qonun qoidalar	
II -bo'lim. Neyrotrop moddalar		
7.	Afferent innervatsiyaga ta'sir etuvchi moddalar. Maxalliy anestetiklar.	3. Afferent nervlar oxirida sezuvchanlikni oshiruvchi va kamaytiruvchi moddalar. Mahalliy anestetiklar. Burishturuvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, yumshatuvchi, qitiqllovchi moddalar.
8.	Burishturuvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, yumshatuvchi, qitiqllovchi moddalar, ularni pediatriyada qo'llanilishi.	
9.	Efferent nerv innervatsiyasiga ta'sir etuvchi moddalar. M- va N - xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar. M-xolinomimetiklar, - pilokarpin, atseklidin. M-N-xolinomimetiklar - karboxolin, atsetilxolin. Xolinesterazaga qarshi moddalar - prozerin, galantamin, dezoksipeganin, fosfakol. M-xolinolitiklar.	4. M- va N - xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar. Antixolinesteraz moddalar. M-xolinomimetiklar va M-xolinolitiklar.
10.	N - xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar. N - xolinomimetiklar - lobelin, tsititon. Nikotinni zaxarliligi. Ganglioblokatorlar- benzogeksoniy, pirilen, pentamin. Miorelaksantlar - tubokurarin, diplatsin, ditilin, dioksioniy, melliklin. Pediatriyada qo'llanilishi.	5. N - xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar. Ganglioblokatorlar. Miorelaksantlar.
11.	Adrenoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar:	6. Adrenoretseptorlarga ta'sir etuvchi

	bevosita va bilvosita α - β - adrenomimetiklar - adrenalin, gidroxlorid, noradrenalin, efedrin. α - mezaton, naftizin, galazolin. β - izadrin, salbutamol, fenoterol.	moddalar. Simpatolitiklar. Dofamin va serotonin retseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar.
12.	α -adrenoblokatorlar - fentolamin, tropafen, prazosin, digidroergotoksin, digidroergotamin. β -adrenoblokatorlar - anaprilin, oksprenalol, metaprolol. Simpatolitiklar - rezerpin, oktadin. α - β - adrenoblokatorlar labetalol.	
13.	Dofamin va serotonin retseptorlarga ta'sir etuvchi moddalar. Dofaminoretseptorlarni qo'zg'atuvchi moddalar - dofamin, bromokriptin, apomorfin; serotoninoretseptorlarini qo'zg'atuvchi - serotonin adipinat. Pediatriyada qo'llanilishi.	
14.	II - OB. Vegetativ nerv sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar bo'limlari bo'yicha.	
15.	Markaziy nerv sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar. Narkoz uchun qo'llaniladigan moddalar. Ingalyatsion va noingalyatsion narkoz.	7. Narkoz uchun qo'llaniladigan moddalar. Etil spirti.
16.	Etil spirti. MNS ga ta'siri. Alkogolizmni davolash.	
17.	Uxlatuvchi moddalar - barbituratlar.	8. Uxlatuvchi moddalar. Talvasaga, epilepsiyaga va parkinsonizmga qarshi moddalar.
18.	Tutqanoqqa qarshi - fenobarbital, geksamidin, xlorakon, karbamazepin, valproat natriy.	
19.	Talvasaga qarshi - benzodiazepin unumlari, xloralgidrat va parkinsonizmga qarshi - levadopa, midantan, tsiklodol, nakom moddalari.	
20.	Narkotik analgetiklar va ularning antagonistlari: morfin, omnopon, promedol, tramadol, fentanil, pentazotsin, nalorfin, nalokson. Pediatriyada qo'llanilishi.	9. Og'riq qoldiruvchi moddalar. Narkotik va nonarkotik analgetiklar.
21.	Nonarkotik analgetiklar: analgin, amidopirin, atsetilsalitsilat kislota, butadion, paratsetamol. Pediatriyada qo'llanilishi.	
22.	Psixotrop moddalar. Neyroleptiklar-aminazin, etaperazin, triftazin, ftorfenazin, xlorprotiksen, galloperidol, klozapin. Antidepressantlar - imizin, amitriptilin, nialamid, transamin. Litiy tuzlari - litiy karbonat. Pediatriyada qo'llanilishi.	10. Asosan psixozlarda qo'llaniladigan moddalar. Neyroleptiklar, antidepressantlar va litiy tuzlari.
23.	Trankvilizatorlar va sedativ moddalar. Benzodiazepin unumlari. Tinchlantiruvchi moddalar - bromidlar. Pediatriyada qo'llanilishi.	

24.	Psixostimulyatorlar. Fenamin, meridil, sidnokarb, kofein.	11. Trankvilizatorlar va sedativ moddalar.
25.	Nootrop moddalar, GAMK-ergik moddalar. Piratsetam, aminalon. Pediatriyada qo'llanilishi. Analeptiklar - etimizol, strixnin, kordiamin, bemegrid, kamfora.	12. Psixostimulyatorlar, analeptiklar, nootrop va GAMK-ergik moddalar.
26.	III - OB. MNS ga ta'sir etuvchi moddalar bo'limi bo'yicha yakuniy mashg'ulot.	
IV - bo'lim. Ijrochi a'zolarga ta'sir etuvchi moddalar		
27.	Nafas a'zolarining faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar. Surfaktant xosil bo'lishini oshiruvchi moddalar, nafas analeptiklari, yo'talga qarshi, balg'am ko'chiruvchi moddalar, bronxolitiklar, o'pka shishida qo'llaniladigan moddalar.	13. Nafas a'zolarining faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar.
28.	Yurak va qon tomir sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar. Kardiotonik moddalar. Yurak glikozidlari - digitoksin, digoksin, tselanid, strofantin K, korglikon, konvallyatoksin. Steroid bo'lmagan kardiotonik moddalar.	14. Kardiotonik moddalar. Yurak glikozidlari.
29.	Aritmiyaga qarshi - xinidin, novokainamid, etmozin, aymalin, panangin, asparkam, lidokain, difenin, amiodaron, anaprilin.	15. Aritmiyaga qarshi va yurak toj qon tomirlarini kengaytiruvchi moddalar.
30.	Yurakni toj tomirlariga ta'sir etuvchi moddalar - nitritlar va nitratlar, karbokromen, kurantil, dipiridamol, papaverin, no-shpa, validol, nonaxlazin, korinfar, anaprilin. Miokard infarktida qo'llaniladigan moddalar.	16. Qon bosimiga ta'sir etuvchi moddalar.
31.	Qon bosimiga ta'sir etuvchi moddalar. Gipertoniya kasalligida qo'llaniladigan neyrotrop, miotrop, kaltsiy antagonistlari, reninangiotenzin sistemasiga, suv-tuz almashinuviga ta'sir etuvchi moddalar. Gipotoniya xolatida qo'llaniladigan moddalar. Angioprotektorlar. Miyada qon aylanishiga ta'sir etuvchi moddalar.	
32.	Siydik xaydovchi moddalar - gipotiazid, furosemid, uregit, promeran, ksantinlar, spironolakton, mannit, mochevina, diakarb. Peshob konkrementlarining xosil bo'lishiga va ularning organizmdan chiqishiga ta'sir etuvchi moddalar- allopurinol, etamid, urodan, tsistenal, fitolizin.	17. Siydik haydovchi moddalar. Bachadonni qisqarish faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar.
33.	Bachadonning qisqarishiga ta'sir etuvchi moddalar: oksitotsin, pituitrin, kotarnin, shoxkuya moddalari, salbutamol.	
34.	Qon sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar. Eritropoezni rag'batlantiruvchi - temir moddalari, vitamin V ₁₂ , folat kislota. Leykopoezni rag'batlantiruvchi - natriy nukleinat, pentoqsil. Gemostatiklar: koagulyantlar - trombin, fibrinogen, vitamin	18. Qon sistemasiga ta'sir etuvchi moddalar.

	K, vikasol; Fibrinolizinni ingibitorlari - aminokapron kislota, kontrikal; trombositlar agregatsiyasi-ni oshiruvchilar- kaltsiy moddalari. Qon ivishini susaytiruvchi - antikoagulyantlar: geparin, fraksiparin, girudin, tsitrat natriy; fibrinolitik, trombositlar agregatsiyasiga qarshi - atsetilsalitsilat kislota, dipiridamol moddalari.	
35.	Me'da-ichak tizimining faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar. Ishtaxani oshiruvchi (achchiq moddalar, insulin), pasaytiruvchi - fepranon, dezopimon, fenfluramin moddalari. Oshqozon bezlari faoliyatiga ta'sir etuvchi: sinama, gipoatsid va giperatsid xolatlarida qo'llaniladigan moddalar. N ₂ - retseptorlarini falajlovchi - tsimetidin, ranitidin. Antatsidlar. Oshqozon osti bezi ferment moddalari. Qustiruvchi va qusishga qarshi, surgi moddalari. Pediatriyada qo'llanilishi.	19. Me'da-ichak tizimining faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar. Jigar faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar.
36.	Jigar faoliyatiga ta'sir etuvchi moddalar. Xolesekreitik, xolekinetiklar - dehidroxol kislota, xolenzim, xolosas, magniy sulfat, sorbit, ksilit. Gepatoprotektorlar – antioksidantlar (tokoferol, ubixinon, askorbin kislota, bioflavonoidlar), gepatotsitlar membranasini butunligini tiklaydigan moddalar - essentsiale, legalon, LIV-52, silibor; vitaminlar-V ₁₂ , S, folat kislota. Mikrosomal fermentlarning induktorlari- fenobarbital, benzonal. Kobaltning koordinatsion birikmalari.	
37.	Ijrochi a'zolariga va sistemalariga ta'sir etuvchi moddalar bo'yicha yakunlovchi mashg'ulot. IV - nchi OB.	
IV - bo'lim. Metabolizmga ta'sir etuvchi moddalar.		
38.	Gormonal moddalar va ularning antagonistlari. Oqsil va polipeptid unumli gormonal moddalar: gipofizning old bo'lagi (trop gormonlari), o'rta bo'lagi (intermedin) va orqa bo'lagi (pituitrin, oksitotsin, adiurekrin). Paratireodin. Oshqozon osti bezining gormonal moddalari - insulin moddalari. Og'iz orqali yuboriladigan sintetik moddalar. Qalqonsimon bezning gormonal moddalari: triyodtironin gidroxlorid, tireoidin, kaltsitrin va ularning antagonistlari- kaliy perxlorat, merkazolil.	20. Gormonal moddalar va ularning sintetik o'rinsosarlari va qarama-qarshilari. Oqsil va polipeptid strukturali gormon moddalar.
39.	Steroid tuzilishga ega gormonal moddalar. Jinsiy a'zolarining gormonal moddalari: ayollar – (estron, estradiol, progesteron,	21. Steroid tuzilishga ega bo'lgan gormon moddalar.

	oksiprogesteron kapronat, pregnin, turinal), erkaklar (testosteron propionat, testesteron enantat, metiltestosteron moddolari). Anabolik steroidlar-nerobolil (fenobolin), nerobol (metandrostenolon), retabolil. Buyrak usti bezining gormonal moddolari dezoksikortikosteron atsetat, kortizon atsetat, prednizalon, prednizalon gemisuktsinat, deksametazon, triamtsinolon, flumetazon pivalat.	
40.	Vitaminlar va vitaminli moddalar. Suvda eriydigan vitaminlar-V ₁ , V ₂ , V ₃ , V ₅ , V ₆ , V ₁₂ , S.	22. Vitaminlar va vitaminli moddalar.
41.	Yog'da eriydigan vitaminlar - retinol, ergokaltsiferol, tokoferol, naftoxinon, vikasol. Kofermentlar. Provitaminlar.	
42.	Yallig'lanishga qarshi, allergiyaga qarshi moddalar. Yallig'lanishga qarshi steroidlar - glyukokortikoidlar. Nosteroid yallig'lanishga qarshi moddalar - atsetilsalitsilat kislota, mefenam kislota, amidopirin, butadion, indometatsin, ibuprofen.	23. Yalliglanishga karshi, immunitetga ta'sir etuvchi, allergiyaga qarshi moddalar. Suvsizlik, gipoksiya, atsidozda qo'llaniladigan moddalar. Biogen stimulyatorlar.
43.	Immunostimulyatorlar - timozin, timalin, taktivin, immunomodullin, interferon, prodigiozan, levamizol. Immunodepressantlar - glyukokortikoidlar, azatioprin, sandimmun. Gistaminga qarshi moddalar - dimedrol, diprazin, diazolin, tavegil, fenkolor, gistaglobulin, intal. N ₂ - retseptorlarni falajlovchi moddalar.	
44.	Biogen stimulyatorlar - aloe, FIBS, gumizol, platsenta osilmasi, rumalon, shishasimon tana, solkoseril: Asalari va ilon zaxarlaridan olinadigan moddalar - apilak, apitotsin, apizartron, virapin, viperalgin, vipratoks. Mumiyo - asil. Suvsizlik, gipoksiya, atsidozni davolashda qo'llaniladigan moddalar: natriy moddolari (natriy xlorid, bikarbonat natriy), poliglyukin, reopoliglyukin, gemodez; kaliy moddolari (kaliy xlorid, panangin), kaltsiy moddolari (kaltsiy xlorid, kaltsiy glyukonat), magniy sulfat, fosfor moddolari - fitin, ATF, riboksin, fosfokreatin.	
45.	V- OB. Metabolizmga ta'sir etuvchi moddalar bo'yicha yakuniy mashg'ulot.	
V -bo'lim. Mikroorganizmlarga qarshi, ximioterapevtik moddalar.		
46.	Dezinfektsiyalovchi va antiseptik moddalar - galloidlar, kislota va ishkorlar, oksidlovchilar, og'ir metall tuzlari, formalin, detergentlar, spirtlar, fenol, nitrofuran unumlari, buyoqlar.	24. Dezinfektsiyalovchi va antiseptik moddalar. Ximioterapevtik moddalar. Antibiotiklar. Penitsillinlar. Sefalosporinlar. Makrolidlar.
47.	Ximioterapevtik moddalar. Antibiotiklar.	

	Penitsillinlar: benzilpenitsillinning natriyli, kaliyli, novokainli tuzlari, bitsillin 1,3,5. Yrim sintetik penitsillinlar- metitsillin, oksatsillin, ampitsillin, ampioks, amoksiklav. Sefalosporinlar - sefalotin, sefaloridin, (seporin), sefazolin (kefzol), sefalekssin, sefotaksin (klaforan), seftriakson (lendamitsin); makrolidlar – eritromitsin, oleandomitsin.	
48.	Antibiotiklar. Tetratsiklinlar, levomitsetin. Aminoglikozidlar - streptomitsin, neomitsin, gentamitsin, monomitsin, kanamitsin, amikatsin. Polimiksinlar.	25. Antibiotiklarni davomi. Tetratsiklinlar, aminoglikozidlar, levomitsetin va polimiksinlar.
49.	Sulfanilamidlar va turli kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan mikroorganizmlarga qarshi sintetik moddalar. Sulfanilamidlar - sulfadimezin, etazol, urosulfan, sulfapiridazin, sulfadimetoksin, sulfamonometoksin, ftalazol, sulfatsil natriy, baktrim. Nitrofuran unumlari - furazolidon, furadonin, furagin, oksixinolinlar: nitroksolin (5-NOK), intestopan, meksaform, meksaza; xinolon unumlari – nalidikson kislota, abaktal.	26. Sulfanilamidlar va turli kimyoviy tuzilishga ega bo'lgan mikroorganizmlarga qarshi sintetik moddalar.
50.	Silga qarshi moddalar - izoniazid, ftivazid, etambutol, natriy paraamino-salitsilat, bepask, etionamid, protion-amid, tsikloserin, streptomitsin sulfat, kanamitsin, florimitsin, tioatsetazon.	27. Silga, zaxmga, viruslarga qarshi moddalar.
51.	Zaxmga qarshi moddalar - benzilpenitsillinning natriyli, kaliyli, novokainli tuzi, bitsillinlar, biyoxinol, bismoverol. Viruslarga qarshi moddalar - midantan, oksolin, remantadin, idoksuridin, metisazon, interferon.	
52.	Protozoylarga, mikroblarga, gijjalarga, Bezgakka, amyobiazga, trixomonozga, lyambliozga, toksoplazmozga, leyshmaniozga qarshi moddalar. Mikroblarga qarshi moddalar.	
53.	VI - OB. Ximioterapevtik moddalar bo'yicha.	
54.	Xavfli o'smalarga qarshi qo'llaniladigan alkillovchi, antimetabolit moddalar. Fitoterapiya, afzalligi va kamchiliklari.	

AMALIY MASHFULOTLAR O'TKAZISH XRONOKARTASI

A. Retsepturadan o'tadigan 2 soatli amaliy mashg'ulotni rejasini bo'limlarini vaqti (minutlarda).

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani aniqlash - 5 min.

II. Talabalarni boshlang'ich bilimini tekshirish.

1. Faol so'rov - **20 min.**
2. Talabalarni bilimini rejalashtirilgan savol-javoblar bilan aniqlash - **5 min.**
3. Retsepturadan nazoratli vazifalarni bajarish - **5 min.**

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ishi.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalarni har-xil shakllarini to'plami bilan tanishish - **5 min.**
2. Dori moddalar shaklini tayyorlash - **10 min.**
3. Retseptlar yozish mashqi - **10 min.**

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Slaydlar ko'rsatish va ularni tahlil qilish - **5 min.**
2. Interaktiv vazifalarni bajarish - **10 min.**

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash - 10 min.

VI. Xulosa - 5 min.

B. Xususiy farmakologiyadan o'tadigan 2 soatli amaliy mashg'ulotni rejasini bo'limlarini vaqti (minutlarda).

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish - 5 min.

II. Talabalarni boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov - **20 min.**
2. Farmakodinamikadan vazifani bajarish - **5 min.**

III. UIRS. Talabalarni mustaqil ishi.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalarni to'plami bilan tanishish - **5 min.**
2. Vaziyatli vazifalarni bajarish - **10 min.**
3. Farmakoterapiyadan vazifani bajarish, tanlangan moddalarga retseptlar yozish - **10 min.**

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, slaydlar ko'rsatish va ularni tahlil qilish - **10 min.**
2. Interaktiv vazifalarni bajarish - **10 min.**

V. Talabalarni bilimni mashg'ulot yakunida aniqlash va baxolash - 10 min.

VI. Xulosa - 5 min.

I. BO'LIM. UMUMIY RETSEPTURA VA UMUMIY FARMAKOLOGIYA.

Amaliy mashg'ulot 1

Mavzu: Kirish. Farmakologiyani vazifalari, usullari va rivojlanish tarixi. Umumiy retseptura. Retsept tarkibi. Qattiq dori shakllari.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Farmakologiya fani va uni uslublari bilan tanishtirish. Retsept yozish, qattiq dori shakllariga retseptlar yozishni o'rganish. Bolalar organizmini xisobga olgan xolda dori moddalarini miqdorini xisoblash. Umumiy retsepturadan asosiy mashqlarni bajarish.

Birinchi mashg'ulot bo'lgani uchun mavzu pedagog tomonidan quyidagi savollar asosida tushuntiriladi.

1. Farmakologiya fanini. Maqsad va vazifalari. Dori vositalarini olinishi, tajribalarda tekshirish va amaliyotga tatbiq qilish.
2. Retseptni umumiy tarkibi va retsept blankalarini turi. Retseptni yozish qonun qoidalari. Ko'rsatma yozish qoidalari. A guruh moddalariga retsept yozish qoidalari. Retseptni qo'shimcha belgilari. Bolalar uchun retsept yozish xususiyatlari.
3. Doza (miqdor) xaqida tushuncha. Og'irlik va xajm. Miqdorlash uchun bolalar yoshini ahamiyati.
4. Poroshok (kukun) - qattiq dori shakli, kukunlarni turi, maydaliligi, ishlatilishi. Sirtga ishlatilish uchun kukunlar. Retsept yozish qoidasi, shakl beruvchi moddalar. Kukun tayyorlash qoidasi.
5. Tabletkalar xaqida tushuncha. Tabletkalarni sifati va chidamliligi, ularga retsept yozish qoidalari, qo'llanilishi. Draje, tabletkadan farqi.

Mashg'ulot rejasi.

I. Pedagog tomonidan tushuntirish.

II. Qattiq dori shakllari.

1. Savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.
2. Retsepturadan nazoratli vazifalarni bajarish.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha qattiq dori shakllar to'plami bilan tanishish.
2. Dori shakllarini tayyorlash.
3. Retseptlar yozish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Slaydlarni muhokama qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarni mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Qattiq dori shakllariga retsept yozish.

1. 6ta ichish uchun temisal (t. d. 0,3) kukuni mumlangan qog'ozda.
2. 10 ta opiy (t. d. 0,1) kukuni.
3. Tarkibida 10% dermatol bo'lgan 20,0 sepma.
4. Tarkibida 40% kraxmal va 60% talk bo'lgan 150,0 kukunsimon aralashma.

5. 10 yoshli bolaga tarkibida krasavka ekstrakti (t. d. 0,015) bo'lgan 10 ta kukun.
6. 10 ta rezerpin (t. d. 0,00025) tabletkasi.
7. 10 ta amidopirin (t. d. 0,25) tabletkasi.
8. 12 ta xinin gidrokslorid (t. d. 0,5), kraxmal kapsulada.
9. 30 ta strixin nitrat (t. d. 0,0005) bo'lgan kukun.
10. Kastor moyi 1,0 bo'lgan jelatin kapsulada.

Vazifa 2

Savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. Farmakologiya fanini vazifasi: a) inson va hayvon organizmida dori moddalar ta'sirida bo'ladigan sifatli va miqdoriy o'zgarishlarni o'rganadi; b) fiziologik jarayonlarni o'rganadi; v) kasallikni klinik o'tishini; g) dori moddalarni tayyorlashni o'rganadi.
2. Qaysi fan nazariy va amaliy tibbiyotni chambarchas bog'laydi: a) kimyo; b) botanika; v) farmakologiya; g) patologik fiziologiya.
3. Farmakologiya fanini rivojlanishida qaysi Sharq mamlakatlarini ahamiyati katta bo'lgan: a) Tibet; b) Xindiston; v) Xitoy; g) Arab davlatlari.
4. Farmakologiyani rivojlanishida qadimgi o'zbek olimlarini hissalari: a) Galen; b) Gippokrat; v) Ibn Abbos; g) Abu Bakr Ar Roziy; d) Abu Ali ibn Sino; e) Abu Rayxon Beruniy; j) Ismoil Jurjoni; z) Umar Chag'miniy; i) Paratsels.
5. Eksperimental farmakologiya rivojlanishida qaysi rus olimlari hissasi katta bo'lgan: a) A.P.Nelyubin; b) O.V.Zabelin; v) Paratsels; g) I.P. Pavlov; d) Ganeman; e) N.P.Kravkov.
6. Farmakologiyani asoschisi: a) I.P.Pavlov; b) N.P.Kravkov; v) S.V.Anichkov; g) D.A.Xarkevich; d) M.D.Mashkovskiy.
7. Dori vositalarini olish yo'llari: a) yovvoyi va madaniy o'simliklardan; b) hayvon a'zolari va to'qimalari; v) sintez usuli.
8. Platsebo – nima: a) dori vositasi; b) dori shakli (tashqi ko'rinishi, hidi, ta'mi bir xil, lekin tarkibida dori vositasi yo'q); v) oziqali qo'shimcha.

Vazifa 3

Retsepturadan nazoratli vazifalarni bajarish. To'g'ri yozilgan retseptni aniqlash, qolganlarida xatosini ko'rsatish.

1. Dozasi 0,02 bo'lgan papaverin gidroksloridiga 10 ta kukun yozing.

Rp. Papaverini hydrochloridi 0,02
M.f. pulvis
D.t.d.N 10
S. 1 por. 2 marta kuniga.

Rp. Papaverini hydrochloridi 0,02
Sacchari albi 0,3
M.f. pulvis
D.t.d.N 10
S. Kuniga 1 por. 2 marta.

Rp. Papaverini hydrochloridi 0,02
Sacchari albi 0,3
D.t.d.N 10 in pulvis
S. 1 por. 2 marta kuniga.

Rp. Papaverini hydrochloridi 0,02
Sacchari albi 0,3
D.t.d.N 10
S. 1 por. kuniga 2 marta

2. Fenobarbital (t.d.0,2) 12 ta kukun.

Rp. Phenobarbitali 0,2
D.t.d.N 12
S. 1 por. kechasiga.

Rp. Phenobarbitali 0,2
D.t.d.N 12 in pulvis
S. 1 por. 3 kechasiga.

Rp. Pulveris Phenobarbitali 0,2
D.t.d.N 12
S. 1 por. kechasiga.

Rp. Pulveris Phenobarbitali 0,2
D.t.d.N 12
S. 1 por. 3 marta.

3. 12 ta amidopirin (t.d. 0,25) tabletkasi. 1 tabletkadan bosh og'riganda.

Rp. Amidopyrini 0,25
Sacchari albi 0,3
D.t.d.N 12 in tabul.
S. 1 tabletkadan bosh og'riganda.

Rp. Amidopyrini 0,25
D.t.d.N 12 in tabul.
S. 1 tabletkadan bosh og'riganda.

Rp. Amidopyrini 0,25
D.t.d.N 12
S. 1 tabletkadan bosh og'riganda.

Rp. Tab. Amidopyrini 0,25
D.t.d.N 12 in tabul.
S. 1 tabletkadan bosh og'riganda.

4. Tarkibida 0,25 dan analgin va amidopirin bo'lgan 12 ta tabletkadan kuniga 3 marta.

Rp. Analgini
Amidopyrini aa 0,25
D.t.d.N 12
S. 1 tabletkadan kuniga 3 marta.

Rp. Analgini 0,25
Amidopyrini
D.t.d.N 12 in tabul.
S. 1 tabletkadan kuniga 3 marta.

Rp. Analgini
Amidopyrini aa 0,25
D.t.d.N 12 in tabul.
S. 1 tabletkadan kuniga 3 maxal.

Rp. Analgini
Amidopyrini 0,25
D.t.d.N 12 in tabul.
S. 1 tabletkadan kuniga 3 marta.

5. Tarkibida 0,25 dan 20 ta aminazin drajesini. 1 drajedan kuniga 3 marta.

Rp. Aminazini 0,025
D.t.d.N 20 in dragee
S. 1 drajedan kuniga 3 maxal.

Rp. Aminazini 0,025
D.t.d.N 20
S. 1 drajedan kuniga 3 maxal.

Rp. Drage Aminazini 0,025
D.t.d.N 20
S. 1 drajedan kuniga 3 maxal.

Rp. Drage Aminazini
D.t.d.N 20
S. 1 drajedan kuniga 3 maxal.

6. 24 ta askorbin kislotasi (t.d.0,3) kukuni, bittadan kuniga 3 marta.

Rp. Pulveris Acidi ascorbinici 0,3
D.t.d.N 24
S. 1 por. kuniga 3 marta.

Rp. Acidi ascorbinici 0,3
D.t.d.N 24
S. 1 por. kuniga 3 marta.

Rp. Acidi ascorbinici 0,3
D.t.d.N 24 in pulvis
S. 1 por. kuniga 3 marta.

Rp. Pulveris Acidi ascorbinici
D.t.d.N 24
S. 1 por. kuniga 3 marta.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 4

Qattiq dori shakllarini to'plami bilan tanishish.

Vazifa 5

Qattiq dori shakllarini tayyorlash.

Oddiy bo'lingan kukun, 0,3g askorbin kislotadan 12 ta kukun tayyorlash: torozda 0,3g dan 12 marta askorbin kislota tortib olinadi va qog'oz bo'lakchalariga solib o'rab qo'yiladi, ular umumiy paketchaga solinadi, etiketkasida soni va dozasi ko'rsatiladi. Shu xolatda bemorlarga beriladi.

Murakkab bo'lingan kukun - tarkibida 0,3g fenatsetin va 0,1g kofein benzoat natriy bo'lgan 6 ta kukun tayyorlash. 6 ta kukun tayyorlash uchun 0,6g kofein benzoat (0,1 x 6), 1,8g fenatsetin (0,3 x 6) miqdor torozda tortib olinadi. Ikkala kukunni chinni idishga solib yaxshilab aralashtiriladi. Har bir kukun $0,3 + 0,1 = 0,4$ bo'lishi kerak. Bu miqdor tarozda tortib olinib 6 ta qog'ozga o'raladi va paketchaga solinadi, etiketkasida soni va dozasi ko'rsatiladi. Shu xolatda bemorlarga beriladi.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Vazifa 6

Slaydlarni taxlili: 1. Tabletkalar. 2. Qobiqli tabletka. 3. Tabletkalar o'ram shakli. 4. Draje. 5. Kukunlar. 6. Sepmalar. 7. Kapsulalar. 8. Kapsula o'ram shakli.

Vazifa 7

Interaktiv vazifalarni «asalari uyasi», «miyaga hujum» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarning mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Amaliy mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: qattiq dori shakllar to'plami, mavzu bo'yicha slaydlar, toroz, toshlar, xovoncha, askorbin kislotasi, fenatsetin, kofein - benzoat. Qog'oz kapsulalar, etiketkalar namunasi, diaprektor.

Amaliy mashg'ulot 2

Mavzu: Suyuq dori shakllari, (qoshiq va tomchilarda miqdorlanadigan).

Eritmalar, damlama, qaynatma, aralashma, nastoyka, suyuq ekstraktlar, yangi Galen moddalari

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Talabalarni suyuq dori shakllari bilan tanishtirish.

II. Vazifalar: 1. Suyuq dori shakllarini umumiy tavsifi, qoshiqlarda miqdorlangan suyuq dori shakllariga to'liq va qisqa retseptlar yozish usulini o'rganish.

2. Damlama va qaynatmalarni tayorlashni bilish.

3. Suyuq dori shakllariga retseptlar yozish.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Qoshiq bilan o'lchanadigan suyuq dori shakllari. Eritmalar. Bu dori shaklini afzallik va kamchiliklari. Eritmalar uchun asosiy shakl beruvchi, ta'm va hidini o'zgartiruvchi, qamrab

oluvchi moddalar. Yozilayotgan eritmani dozalash, qoshiq hajmi, umumiy miqdori. Eritmalarni yozish qoidasi, to'liq va qisqa shakli.

2. Damlama va qaynatmalar. Umumiy xarakteristikasi va farqi. Damlama va qaynatmalarni tayyorlash usullari.
3. Emulsiyalar. Emulsiya turlari. Tayyorlash qoidasi. Tomchi xolda dozalanadigan emulsiyalar.
4. Tomchi bilan o'lanadigan suyuq dori shakllari. Eritmani umumiy miqdori. Eritma tomchilarni. Retseptda yozish usullari (ichish uchun tomchi, ko'z, qo'loq, burun uchun tomchilar).
5. Nastoyka va suyuq ekstraktlarni umumiy xarakteristikasi, farqi, tayyorlash usuli va miqdorlash. Retsept yozish qoidasi.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarni boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.
3. Retsepturadan nazoratli vazifalarni bajarish.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha suyuq dori shakllar to'plami bilan tanishish.
2. Suyuq dori shakllarini tayyorlash.
3. Retseptlar yozish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Slaydlarni muxokoma qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarni mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan vazifani tekshirishi.

Vazifa 1

Mustaqil yozilgan retseptlarni tekshirish.

1. 8 yoshli bolaga kaltsiy glyukonat eritmasi (t. d. 0,5) choy qoshiqda.
2. Kaliy iodid eritmasi (t. d. 0,45) osh qoshiqda.
3. 1:30 nisbatda, 12 qabulga bahor maysasasi (Adonis vernalis) o'tidan damlama.
4. 1:10 nisbatda tolaknyanka bargidan qaynatma.
5. Tarkibida 3% natriy bromid va 0,5 % kodein bo'lgan aralashma osh qoshiqda.
6. Tarkibida 30 ml kastor moyi bo'lgan emulsiya, ichish uchun 3 qabulga.
7. 10 ml krasavka (Belladonna) nastoykasi, 10 tomchidan kuniga 2 maxal ichish uchun.
8. Atropin eritmasi (t. d. 0,0005). 10 tomchidan kuniga 2 maxal ichish uchun.
9. 30 ml suyuq krushina ekstrakti, 30 tomchidan kechasiga.

II. Talabalarni boshlang'ich bilimni aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar asosida.

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. Suyuq dori shakllarini tanlash: a) pasta; b) eritma; v) liniment; g) aralashma; d) damlama; e) qaynatma; j) ekstraktlar.
2. Suyuq dori shakllarini erituvchilari: a) distillangan suv; b) etil spirti 70%, 90%, 96%; v) shaftoli, vazelin, zaytun moylari; g) glitserin; d) efir.

3. Eritma uchun xos xususiyat: a) tiniqlik; b) cho'kmalar tutmaydi; v) suvda erimaydi; g) suyuqliklarda (efir moyi, yog'lar) erimaydi; d) sutga o'xshaydi.
4. Suspenziyaga xos xususiyat: a) tiniqlik; b) cho'kmalar tutmaydi; v) suvda erimaydi; g) suyuqliklarda (efir moyi, yog'lar) erimaydi; d) sutga o'xshaydi; e) erimaydigan qattiq maydalangan dori vositalari xolatda bo'ladi; j) sirtga ishlatilish uchun.
5. Damlamalar o'simlikni qaysi qismidan tayyorlanadi? a) nozik qismidan (guli, bargi); b) dag'al qismidan (po'stloq, ildiz).
6. Qaynatmalar o'simlikni qaysi qismidan tayyorlanadi? a) nozik qismidan (guli, bargi); b) dag'al qismidan (po'stloq, ildiz).
7. Bolalar uchun aralashmaga nima qo'shiladi: a) moy; b) sirop; v) qattiq moddalar.
8. Nastoyka uchun xos xususiyat: a) dorivor o'simliklardan ajratib olinadi; b) dorivor o'simliklardan spirtida ajratib olinadi; v) 1:5 va 1:10 nisbatda tayyorlanadi; g) ofitsinal; d) magistral.
9. Ekstraktlar qanday bo'ladi: a) qattiq b) suyuq; v) quyuq; g) quruq.
10. Sirtga ishlatiluvchi eritmalar: a) suspenziya; b) ekstrakt; v) ko'z, quloq, burun tomchilari; g) primochka, yuvish, chayish uchun eritmalar.

Vazifa 4

To'g'ri yozilgan retseptni tanlash, boshqalarida xatosini ko'rsatish.

1. 4 kunga natriy bromid eritmasi tayyorlansin, 1 martada 0,3 g natriy bromid 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta qabul qilish uchun.

Rp. Natrii bromidi 3,6 - 180 ml
D.S. 1 osh qoshiqdan 3 maxal.

Rp. Natrii bromidi 180 ml
D.S. 1 osh qoshiqdan 3 maxal.

Rp. Sol. Natrii bromidi 3,6 - 180 ml
D.S. 1 osh qoshiqdan 3 maxal.

Rp. Sol. Natrii bromidi 2% - 180 ml
D.S. 1 osh qoshiqdan 3 maxal.

2. 6,0 baxorgi maysa o'tidan 180 ml damlama.

Rp. Infusi Herbae Adonis Vernalis 6,0
D. S. 1 osh qoshiqdan 3 marta.

Rp. Herbae Adonis Vernalis 6,0
Aq. destill. 180
M. f.Solutio
S. 1 osh qoshiqdan 3 marta.

Rp. Infusi Herbae Adonis Vernalis
6,0-180 ml
D. S. 1 osh qoshiqdan 3 marta.

Rp. Inf. Herbae Adonis Vernalis
6,0-180 ml
M. D. S. 1 osh qoshiqdan 3 marta.

3. Mayskiy landishdan 20 ml nastoyka, kuniga 20 tomchidan 2 marta qabul qilish uchun.

Rp. Tinct. Convallariae majalis 20,0
S. 20 tomchidan 2 marta.

Rp. Tinct. Convallariae majalis 20,0
D. S. 20 tomchidan 2 marta.

Rp. Tinct. Convallariae majalis 20 ml
D. S. 20 tomchidan 2 marta.

Rp. Tinct. Convallariae majalis 1:10 20 ml
D. S. 20 tomchidan 2 marta.

4. 180 ml aralashma, tarkibida 1 qabulga 0,005 kofein benzoat natriy va 0,2 amidopirin, 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta.

Rp.Coffeini - natrii benzoatis 0,05
Amidopyrini 0,2
Aq. destill ad 180 ml
M.D.S. 1 osh qoshiqdan 2 marta.

Rp.Coffeinum natrii benzoatis 0,6
Amidopyrini 0,4
Aq. destill ad 180 ml
M.D.S. 1 osh qoshiqdan 2 marta.

Rp.Coffeinum-natrii benzoatis 0,6 - 180 ml
Amidopyrini 2,4
Aq. destill ad 180 ml
M.D.S. 1 osh qoshiqdan 2 marta.

Rp.Coffeinum natrii benzoatis 0,6
Amidopyrini 2,4
Aq. destill ad 180 ml
D.S. 1 osh qoshiqdan 2 marta.

5. 0,1% - 10 ml atropin sulfat eritmasi, 10 tomchidan kuniga 2 marta.

Rp. Atropini sulfatis 0,01-10 ml
D.S. 10 tomchidan kuniga 2 marta.

Rp. Sol. Atropini sulfatis 0,01-10 ml
D.S. 10 tomchidan kuniga 2 marta.

Rp. Sol. Atropini sulfatis 10 ml
D.S. 10 tomchidan kuniga 2 marta.

Rp. Sol. Atropini sulfatis 0,1%-10 ml
D.S. 10 tomchidan kuniga 2 marta.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 5

Suyuq dori shakllari to'plami bilan tanishish.

Vazifa 6

Suyuq dori shakllarini tayyorlash.

Ichish uchun 12 qabulga eritma tayyorlash, tarkibida xar bir qabulda 0,3 kaliy yodid va 0,2 natriy bromid bo'lsin. 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta. Kaliy yodid kerakli miqdorda tortib olinadi va 50-70 ml distillangan suvda eritiladi. Eritmani o'lchamli tsilindrga solib, ustiga kerakli miqdorda natriy bromid qo'shib aralashtiriladi so'ngra kerakli xajmgacha suv solinadi. Eritma filtrlanadi.

12 qabulga baxorgi maysa o'tidan damlama tayyorlash, har bir qabulga 0,5 dan 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta. Kerakli miqdordagi maydalangan baxorgi maysa o'ti tortib olinadi. So'ngra kerakli miqdorda suv solinib 15 min davomida qaynab turgan suvda ushlanadi, 30 min sovutiladi, so'ngra dokadan filtrlanadi, kerakli miqdorgacha distillangan suv quyiladi.

Vazifa 7

Retsepturadan mashq. 1) 10 yoshli bolaga natriy yodid eritmasi (t. d. 0,5) 1 desert qoshiqdan buyuriladi. 2) Kaltsiy xlorid eritmasi (t. d. 0,5) 1 osh qoshiqdan 12 qabulga. 3) Naperstyanka bargidan damlama (t. d. 0,05) 10 yoshga. 4) Dub po'stlog'idan qaynatma (1:10). 5) Aralashma, tarkibida 0,45 termopsis o'ti, 0,2 kodein fosfat, osh qoshiqda buyuriladi. 6) 20 ml baliq moyidan 200 ml emulsiya, 1 osh qoshiqdan. 7) 25 ml valeriana nastoykasini 25 tomchidan qabulga. 8) 25 ml arslonquyruq va valeriana nastoykasi teng miqdorda, qabuliga 25 tomchidan, kuniga 2 maxal. 9) 10 ml furatsilinni spirtli eritmasi (1:1500) 2-3 tomchi. 10) 20 ml do'lana suyuq ekstrakti 20 tomchidan kuniga 2 marta.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Vazifa 8

Jadvallar va slaydlar taxlili:

1 jadval

Damlama va qaynatma tayyorlash uchun qo'llaniladigan o'simliklar qismi.

O'simlik qismlari nomlari	Bosh kelishik birlik sonda	Qaratqich kelishik ko'plik sonda
po'stloq	cortex	corticis
ildiz	radix	radicis
ildizpoya	rhizoma	rhizomatis
barg	folium	folii
o't	herba	herbae
gul	flos	floris

2 jadval

Damlama va qaynatma tayyorlash xususiyatlari.

Dori shaklini nomi	Dori shakli tayyorlanishi uchun olinuvchi o'simlik qismi	Qo'llaniluvchi suyuqlik	Suv ham-momida qaynatish vaqti, min	Sovutish vaqti, min	Dori shaklini qaysi xolatda suzib olish yoki filtrlash
Damlama	Barglar, o't, gullar	Distillangan suv	15	45	Sovutilgan xolda
Qaynatma	Po'stloq, ildizlar, ildizpoya	Distillangan suv	30	10	Issiq xolda

Slaydlar:

1. Suvli eritmalar. 2. Ichish uchun eritma. 3. Emulsiya. 4. Damlama. 5. Qaynatma. 6. Aralashma. 7. Aromat suvlar.

Vazifa 9

Interaktiv vazifalarni «qorchalar», «qora quti» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: mavzu bo'yicha dori shakllari to'plami, slaydlar, toroz, toshlar, xovoncha, ulchov tsilindr, voronka, shisha idishlar (200 ml), kapsulalar, distillangan suv, etiketkalar, infundirka, kaliy yodid kukuni, natriy bromid, naperstyanka bargi, goritsveta o'ti, filtrlar, diaproektor.

Amaliy mashg'ulot 3

Mavzu: Suyuq dori shakllari. Sirtga qo'llash uchun eritmalar va in'ektsiyalar.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Sirtga ishlatiluvchi dori vositalar bilan tanishish. Bolalar va kattalarga retseptlar yozish.

II. Vazifalar:

1. Sirtga qo'llaniluvchi suyuq dori shakllariga retsept yozish qoidasini bilish.
2. Dori shakllari to'plami bilan tanishish.
3. Primochka va klizma uchun eritma tayyorlash.
4. Retseptlar yozish.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Sirtga qo'llaniluvchi suyuq dori shakllarini umumiy xarakteristikasi.
2. In'ektsiya uchun eritmalarini umumiy xarakteristikasi.
3. Retsept yozish usullari: keng, qisqartirilgan.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalar boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.
3. Retsepturadan nazoratli vazifalarni bajarish.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar shakllarini yozish va to'plami bilan tanishish.
2. Retsepturadan mashq.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Slaydlarni muxokama qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarning mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash vva baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan vazifani tekshirishi.

Vazifa 1

Retseptlarni mustaqil yozish va moddalarni qo'llanishini ko'rsatish.

1. 3% - 100 ml vodorod peroksid eritmasi, chayish uchun.
2. 1% - 25 ml brilliant ko'kini spirtli eritmasi.
3. Klizma uchun xloralhidrat (t. d. 0,5).
4. 0,5% - 2 ml novokain eritmasi, ampulada.
5. 500000 ED dan bo'lgan 10 ta flakon benzilpenitsillinni natriyli tuzi.
6. 5% - 200,0 ml glyukoza eritmasi vena ichiga.
7. 10 ampula 0,05% - 1,0 ml strofantin K eritmasi.
8. 10 ampula 1% - 1 ml omnopon eritmasi.
9. Dub po'stlog'i qaynatmasi 1:10 nisbatda chayish uchun
10. In'ektsiya uchun insulin 5 ml (1ml=40 ED) flakonda.

II. Talabalarni boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar asosida.

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. Sirtga qo'llash uchun dori shakllari: a) emulsiya; b) suspenziya; v) tomchilar; g) primochkalar; d) chayish, klizma.
2. Qaysi eritmalar sirtga qo'llanadi: a) magistral; b) emulsiya; v) suspenziya; g) yig'malar; d) ofitsinal.
3. In'ektsiya uchun eritmalar qanday qo'llaniladi: a) teri ostiga; b) ichish uchun; v) mushak orasiga; g) vena ichiga; d) orqa miya kanaliga; e) sirtga.
4. In'ektsiya tayyorlash uchun eritmalar: a) distillangan suv; b) yog'lar; v) suspenziya; g) liniment; d) natriy xloridni izotonik eritmasi.
5. In'ektsiya uchun ishlab chiqariladigan dori shakllari: a) ampula; b) flakon; v) shamchalar; d) shprints-tyubik.
6. Suyuq organik moddalarni miqdorlash: a) ml; b) og'irlik o'lchovi; v) ta'sir birligi TB.
7. In'ektsiya uchun dori vositalariga xos xususiyatlari: a) ko'pchilik xolatda ampulada chiqadi; b) steril; v) kontsentratsiyasi ko'rsatiladi, xajmi, millilitrda; g) ta'siri tez boshlanadi.

Vazifa 4

To'g'ri yozilgan retseptni ko'rsatish, boshqalarida xatosini aniqlash.

1. 1%-1ml morfin gidroxlorid eritmasidan 10 ampula yozish.

Rp. Morphini hydrochloridi 1% - 1ml
D.t.d.N 6 in ampullis
S. 1 ml dan t/o.

Rp. Sol. Morphini hydrochloridi 1% - 1ml
D.t.d.N 6
S. 1 ml dan t/o.

Rp. Sol. Morphini hydrochloridi 1% - 1ml
D.t.d.N 6 in ampullis
S. 1 ml dan t/o.

Rp. Sol. Morphini hydrochloridi 1% - 1ml
D.t.d.N 6 in ampullis
S. 1 ml dan t/o.

2. 1 ml li 10 ta ampula sititonni yozish.

Rp. Sol. Cytitoni 1 ml
D.t.d.N 10 in ampullis
S. 1 ml dan v/i

Rp. Cytitoni 1 ml
D.t.d.N 10 in ampullis
S. 1 ml dan v/i

Rp. Cytitoni 1 ml
D.t.d.N 10
S. 1 ml dan v/i

Rp. Cytitoni 1% - 1 ml
D.t.d.N 10 in ampullis
S. 1 ml dan v/i

3. 10 fl. benzilpenitsillin natriyni 500 000 ED dan kuniga 3 maxal mushaklar orasiga.

Rp. Benzylpenicilini - natrii 500 000 ED
D.t.d.N 10
S. 500000 ED ni 2ml 0,25% steril-langan novokain eritmasida eritib kuniga 3 marta m/o.

Rp. Benzylpenicilini natrii 500 000 ED
D. S. 500000 ED ni 2ml 0,25% sterillangan novokain eritmasida eritib kuniga 3 marta m/o.

Rp. Benzylpenicilini natrii 500 000 ED
D.t.d.N 10 in flaconis
S. 500000 ED ni 2ml 0,25% steril-langan
novokain eritmasiga eritib kuniga 3
marta m/o.

Rp.Sol. Benzylpenicilini natrii 500 000 ED
D.t.d.N 10
S. 500000 ED ni 2ml 0,25% sterillangan
novokain eritmasida eritib kuniga 3 marta
m/o.

4. 1 ml - 5 ED bo'lgan pitiutrindan 6 ampula t/o.

Rp. Pituitrini 1ml(1ml=5 ED)
D.t.d.N 6
S. 1 ml (5ED) dan t/o.

Rp. Sol. Pituitrini 1ml
D.t.d.N 6 in ampullis
S. 1 ml (5ED) dan t/o.

Rp. Pituitrini 1ml(1ml=5 ED)
D.t.d.N 6 in ampullis
S. 1 ml (5ED) dan m/o.

Rp. Pituitrini 1ml
D.t.d.N 6 in ampullis
S. 1 ml (5ED) dan t/o.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 5

Suyuq dori shakllarini to'plami bilan tanishish.

Vazifa 6

Retsepturadan mashq. 1) 0,5% achchiq tosh eritmasiga primochka uchun retsept. 2) 3% bor kislotasi chayish uchun, kengaytirilgan shaklda. 3) 5% yodni spirtli eritmasi qisqa shaklda. 4) Natriy xloridni izotonik eritmasidan 500 ml vena ichiga. 5) Furatsillin eritmasi 1:5000 jaroxatni tozalash uchun. 6) In'ektsiya uchun 10 ta ampula promedol (t. d. 0,02). 7) 10 ampula sititon 1ml, vena ichiga. 8) 5 flakon tiopental natriy (t. d. 1,0). 9) 0,25%-200ml novokain eritmasi, steril xolatda. 10) 10 flakon benzilpenitsillinni natriyli tuzi (t. d. 500000 TB).

IV. Yangi pedagogik texnologiyani qo'llash.

Vazifa 7

Slaydlar taxlili:

1. Parenteral yuborish uchun eritmalar. 2. Dori vositasi va erituvchilar saqlovchi dori shakllari. 3. 1 martalik shprints - ampulalar. 4. Ko'p martalik shprints - ampulalar. 5. Dori shakllarini o'ram turlari. 6. Klizmalar (xo'qnalar).

Vazifa 8

Interaktiv vazifalarni «asalari uyasi», «qora quti» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarni mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: mavzu bo'yicha dori shakllari to'plami va slaydlar, toroz, toshlar, xovoncha, o'lchov tsilindri, voronka, shisha idishlar (200 ml), qaychi, alyumin atsetat, rux sulfat, diaproektor.

Amaliy mashg'ulot 4

Mavzu: Yumshoq dori shakllari (malhamlar, suyuq malhamlar, quyuq malhamlar, shamchalar)

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Yumshoq dori shakllari bilan tanishish.

II. Vazifalar:

1. Yumshoq dori shakllarini yozilishi - malxam, pasta, shamcha, sharchalar, linimentlar va ularni bir-biridan farqini bilish.
2. Ofitsinal malxam, liniment, pastalarni bilish.
3. Malxam, liniment, shamchalarga retseptlar yozish.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Malxam, pasta, liniment, shamchalar. Malxamlarni tasniflash. Shakl beruvchi moddalar tavsifi: xayvon maxsuloti, neftni qayta ishlash maxsuloti, o'simlik moyi. Ofitsinal va magistral malxamlar.
2. Pastalar. Pastalar tavsifi. Pastalarni malxamdan farqi. Yozilish shakllari. Ofitsinal pastalarga retseptlar yozish.
3. Linimentlar. Linimentlar tavsifi. Malxamdan farqi. Linimentlarni yozilish shakllari.
4. Shamchalar. Rektal va vaginal shamchalar. Shamcha tayyorlashda ishlatiluvchi asos moddalar.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarni boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.
3. Retsepturadan nazoratli vazifalarni bajarish.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar shakllarini to'plami bilan tanishish.
2. Yumshoq dori shakllarini tayyorlash.
3. Retseptlar yozish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Slaydlarni muxokama qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarni mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Mustaqil yozilgan retseptlarni tekshirish.

1. Vishnevskiy linimentiga retsept.
2. Tarkibida 10% dermatol tutuvchi 30,0 vazelinda tayyorlangan malxam.
3. 5%-25,0 ofitsinal sintomitsin linimenti.

4. Tarkibida 2,5% bor kislotasi, 3% rux oksidi va 5% kraxmal 50,0 malxam vazelinda.
5. 10% rux malxami.
6. 5% anestezin pastasi.
7. Tarkibida 0,15 ixtiol bo'lgan 6 ta vaginal shamcha.
8. Tarkibida 0,015 belladonna ekstrakti bo'lgan 5 ta rektal shamcha.
9. Tarkibida 0,25 osarsol bo'lgan 10 vaginal shamcha
10. Tarkibida 0,25 anestezin bo'lgan 10 rektal shamcha.

II. Talabalarni boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar asosida.

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. Yumshoq dori shakllari: a) draje; b) shamchalar; v) malxam; g) liniment; d) aralashma; e) pasta.
2. Tayyorlanishiga qarab qanday malxamlar mavjud: a) ofitsinal; b) kosmetik; v) magistral; g) oziqlantiruvchi; d) ko'z malxami.
3. Magistral malxamlar tayyorlanishi: a) ximfarmzavodda; b) uy sharoitida; v) vrach retsepti bo'yicha dorixonada.
4. Malxam asoslari: a) shaftoli moyi; b) vazelin; v) lanolin; g) cho'chqa moyi; d) paxta moyi; j) kungaboqar moyi.
5. Linimentlar uchun asoslarni belgilang: a) shaftoli moyi; b) vazelin; v) lanolin; g) cho'chqa moyi; d) paxta moyi; j) kungaboqar moyi.
6. Pastada kukunsimon moddalar qancha foiz bo'ladi: a) 10%; b) 15%; v) 25%; g) 50%.

Vazifa 4

To'g'ri yozilgan retseptni ko'rsatish, boshqalarida xatosini aniqlash.

1. 5% anestezin bo'lgan 30,0 malxam.

Rp. Anaesthesini 1,5
Vasilini 30,0
D.S. Sirtga.

Rp. Anaesthesini 1,5
Vaselini ad 30,0
M.f. Unguentum
D.S. Sirtga.

Rp. Anaesthesini 3,0
Vaselini ad 30,0
M.f. Unguentum
D.S. Sirtga.

Rp. Unguenti Anaesthesini 30,0
D.S. Sirtga.

2. 5% rux oksidi bo'lgan 50,0 lanolinli pasta.

Rp. Zinci oxydati 2,5
Lanolini ad 50,0
M.f. pasta
D.S. Sirtga.

Rp. Zinci oxydati 2,5
Amyli 15,0
Lanolini ad 50,0
D.S. Sirtga.

Rp. Zinci oxydati 2,5
Amyli 15,0
Lanolini 50,0
M.f. pasta
D.S. Sirtga.

Rp. Zinci oxydati 2,5
Lanolini
M.f. pasta
D.S. Sirtga.

3. 0,25 osarsol bo'lgan 6 ta vaginal suppozitoriy, 1 suppozitoriydan kuniga 2 maxal.

Rp. Osarsoli 0,25
Olei Cacao q. s.
M.f. Suppositorium
S. 1 supp. 2 marta kuniga.

Rp. Osarsoli 0,25
Olei Cacao q. s.
D. S. 1 supp. 2 marta kuniga.

Rp. Osarsoli 0,25
Olei Cacao q. s.
D.t.d, N 6
S. 1 supp. 2 marta kuniga.

Rp. Osarsoli 0,25
Olei Cacao q. s.
M.f. Suppositorium vaqinale
t. d. N6
S. 1 supp. 2 marta kuniga.

4. 60 ml liniment, tarkibida 20 ml xloroform va 40 ml belena yog'i, jaroxatlangan bo'g'imga surtish uchun.

Rp. Sloroformii 20,0
Olei Hyoscyami 40,0
D.S. Sirtga surtish uchun.

Rp. Sloroformii 20,0
Olei Hyoscyami 40,0
M.f. Linimentum
D.S. Sirtga surtish uchun.

Rp. Sloroformii 20,0
Olei Hyoscyami 40,0
M.f. Unguentum
D.S. Sirtga surtish uchun.

Rp. Linimentum Sloroformii 20,0
Olei Hyoscyami 40,0
D.S. Sirtga surtish uchun.

5. Tarkibida 20% sulfatsil natriy bo'lgan, lanolin va vazelinda (1:9) tayyorlangan 5,0 ko'z malxami.

Rp. Sulfacylii natrii 1,0
Lanolini 0,5
Vaselini ad 5,0
D.S. Ko'z malxami.

Rp. Sulfacylii natrii 1,0
Lanolini 2,5
Vaselini ad 5,0
M.f. Unguentum
D.S. Ko'z malxami.

Rp. Sulfacylii natrii 1,0
Lanolini 0,5
Vaselini ad 5,0
M.f. Unguentum
D.S. Ko'z malxami.

Rp. Sulfacylii natrii 1,0
Lanolini 0,5
Vaselini ad 5,0
M.f. Unguentum
D.S. Ko'z malxami.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 5

Yumshoq dori shakllari to'plami bilan tanishish.

Vazifa 6

Yumshoq dori shakllarini tayyorlash.

Malxam. 0,5% - 10,0 bo'lgan anestezin malxamini tayyorlash. Kerakli miqdordagi anestezin tortib olinadi va farfor idishda ezib maydalanadi. So'ngra kerakli miqdorda vazelin tortib olinadi va anestezin bilan bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Hosil bo'lgan malxam bankalarga solinib, belgilab qo'yiladi.

Pastalar 10%-50,0 anestezin pastasini tayyorlash. Kerakli miqdordagi anestezin tortib olinadi va farfor idishga solinadi. So'ngra to'g'ri keladigan miqdorda vazelin (mumlangan qog'ozda) olinadi va bir xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Hosil bo'lgan pasta bankachalarga solinib, belgilab qo'yiladi.

Suyuq malxam. 5%-20,0 suyuq anestezin malxamini tayyorlash. Kerakli miqdordagi anestezin tortib olinadi va farfor idishga solinadi. So'ngra kerakli miqdordagi paxta yog'i tortib olinib anestezin bilan bir-xil massa hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Tayyor bo'lgan malxam bankachalarga solinib, belgilab quyiladi.

Vazifa 7

Retsepturadan mashq. 1) 1%-50,0 eritromitsin malxami. 2) Tarkibida 3% streptotsid va tsink oksidi bo'lgan 25,0 pasta. 3) Tarkibida 0,2 teofillin bo'lgan 6 ta shamcha. 4) Tarkibida trixomonatsid (t. d. 0,2) bo'lgan 12 ta vaginal shamcha. 5) Tarkibida belena va kungaboqar moyi bo'lgan 50,0 liniment. 6) Tarkibida 2% salitsilat kislotasi bo'lgan 50 g pasta. 7) 10% - 100,0 bo'lgan ofitsinal sintomitsin linimenti. 8) 50,0 ofitsinal bo'lgan oq streptotsid malxami. 9) 6 ta fenobarbital (t. d. 0,1) shamchasi. 10) Belladonna ekstraktini (t. d. 15mg) saqllovchi shamcha.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Vazifa 8

Slaydlar taxlili:

1. Malxam. 2. Ko'z malxami. 3. Pasta. 4. Rektal shamcha. 5. Shariklar.

Vazifa 9

Interaktiv vazifalarni «**asalari uyasi**», «**qora quti**» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: mavzu bo'yicha yumshoq dori shakllari to'plami, mavzu bo'yicha slaydlar, vazelin, anestezin, kraxmal, toroz, toshlar, farfor xovoncha, shisha idishlar, diaproektor.

Amaliy mashg'ulot 5

Mavzu: Umumiy retsepturadan oraliq nazorat

Soat soni - 2.

1 chi 45¹ oraliq nazorat yozma ravishda variantlar asosida o'tkaziladi.

2 chi 45¹ oraliq nazorat tekshiriladi.

Misol uchun biletni ko'rinishi:

1. Xar bir qabul uchun 5 dg Ca glyukonat eritmasi desert qoshiqda.
2. 20,0 streptotsid poroshogini yozib bering.
3. Mikstura tarkibida Ipekakuana ildizi damlamasi 1:400 va 2 dg kodein fosfat va 4 gr dan arpabodion tomchisi va natriy gidrokarbonat er-si 1 osh. qoshiqdan 3 maxal.
4. Xlorprotiksen 20 ta draje td 15 mg dan.
5. 100 ta ofitsinal «Vikalin» tabletkada.
6. Goritsvet o'tidan damlama 1:30.
7. Suyuq krushina ekstraktini yozib bering 25 ml.
8. Altey ildizidan qaynatma 1:10.
9. 10,0 malxam lanolin va vazelinda 1:9, 20 %li sulfatsil natriy ko'z malxami.
10. 10 rektal 0,01 omnopon shamchasini yozib bering.

Amaliy mashg'ulot 6

Mavzu: Umumiy farmakologiya. Umumiy farmakokinetika va farmakodinamikani qonun-qoidalari.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Talabalarga farmakodinamika va farmakokinetikadan umumiy tushuncha berish.

II. Vazifalar:

1. Dori vositalarni farmakodinamikasini va farmakokinetikasini bilish.
2. Farmakodinamika va farmakokinetikadan mustaqil vazifalarni bajarish.
3. Dori moddalarni har-xil shakllariga retseptlar yozish.
4. Mavzu bo'yicha xulosa qilishni bilish.

III. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan savollar:

Dori moddalarini farmakodinamika va farmakokinetikasi. Dori moddalarini takror va kombinirlangan xolda qo'llash.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Dori moddalarini yuborish yo'llari.
2. Dori moddalarini so'rilishi, tarqalishi, metabolizmi va organizmdan chiqib ketishi.
3. Me'da-ichakdan yuborilgan moddalarni so'rilish mexanizmlari.
4. Dori moddalarni ta'sir qilish turlari va davolash yo'llari.
5. Dori moddalarni ta'sir mexanizmlari.
6. Dori moddalarni takror va kombinirlangan xolda qo'llash.
7. Dori moddalarni o'zaro ta'siri.
8. Dori moddalarni birgalikda qo'llash.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Farmakodinamikadan vazifa.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.
2. Vaziyatli vazifalarni taxlil qilish.
3. Farmakoterapiyadan vazifa tanlangan moddalarga retseptlar yozish.
4. Referativ ma'lumotlarni eshitish va muxokama qilish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, moddalarni kimyoviy formulalari, slaydlarni ko'rish va muxokoma qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Umumiy farmakologiyadan mustaqil tayyorlanish uchun berilgan savollarga javoblarni tekshirish.

Vazifa 1

Farmakodinamika va farmakokinetika asoslari bo'yicha berilgan savollarga javobni tekshirish.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun keltirilgan savollar asosida.

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. Farmakodinamika tushunchasi: a) dori moddalar gidrolizi; b) dori moddalarni eliminatsiyasi; v) dori moddalarni atsetillanishi; g) dori moddalarni organizmdan chiqishi; d) dori moddalarni reflektor ta'siri.
2. Me'da ichak traktidan dori moddalarni so'rilish yo'llari: a) sust diffuziya; b) pinotsitoz; v) faol transport; g) filtratsiya; d) yengil diffuziya.
3. Dori moddalarini gradient kontsentratsiyasiga qarshi energiya sarflab so'rilishi: a) faol transport; b) filtratsiya; v) sust diffuziya; g) yengil diffuziya; d) pinotsitoz.
4. Dori moddani faqat ma'lum bir a'zo yoki sistemaga ta'siri: a) qaytar b) maxalliy; v) to'g'ridan to'g'ri; g) reflektor; d) tanlab.
5. Dori moddani qonga so'rilgandan keyin bo'lgan ta'siri: a) rezorbtiv; b) maxalliy; v) reflektor; g) konkurent; d) nokonkurent.
6. Kasallikni oldini olishga yo'naltirilgan davolash turi: a) o'rin bosar; b) etiotrop; v) simptomatik; g) patogenetik; d) profilaktik.
7. Dori moddalarni takror yuborilganda kuzatiladigan xolat: a) idiosinkraziya; b) potentsirlash, jamlangan; v) antagonizm, antidiotizm; g) sinergizm; d) sensibilizatsiya, o'rganib qolish, kumulyatsiya.
8. Takror yuborilganda kuzatiladigan xolatlar: a) sinergizm; b) potentsirlash, jamlanish; v) antagonizm, antidiotizm; g) idiosinkraziya; d) dori vositasiga qaramlik, taxifilaksiya, tolerantlik.
9. Qanday moddalar biologik standartizatsiyalanadi: a) sulfanilamidlar, adrenomimetiklar; b) yaraga qarshi, aritmiyaga qarshi moddalar; v) simpatolitiklar, miorelaksantlar; g) ganglioblokatorlar, anestetiklar; d) yurak glikozidlari, antibiotiklar, hayvonot olamidan olinadigan gormonal moddalar.
10. Genetik enzimopatiyaga bog'liq xolda dori moddalarga sezuvchanlikni uzgargan xolati: a) idiosinkraziya; b) kumulyatsiya; v) kon'yugatsiya; g) induktsiya; d) taxifilaksiya.
11. Dori moddalarga tez o'rganib qolish: a) sensibilizatsiya; b) taxifilaksiya; v) qaramlik; g) tolerantlik; d) abstenentsiya.
12. Takror yuborilganda dori moddasini organizmda yig'ilishi: a) o'rganib qolish; b) funktsional kumulyatsiya; v) qaramlik; g) moddiy kumulyatsiya; d) idiosinkraziya.

13. Dori moddalarni organizmdan asosiy chiqish yo'li: a) buyrak; b) teri; v) oshqozon ichak trakti g) sut bezlari; d) nafas a'zolari.
14. Dori moddalarni kombinirlangan xolda qabul qilinganda ko'riladigan xususiyati: a) kumulyatsiya, taxifilaksiya, sensibilizatsiya; b) biotransformatsiya, kon'yugatsiya, abstenentsiya; v) metillanish, atsetillanish; g) potentsirlanish, antagonizm, sinergizm; d) tolerantlik, qaramlik, idiosinkraziya.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 4

Dori moddalar to'plami bilan tanishish.

Har bir talaba dori moddalarni qo'liga olib, qaysi kasallikda, ayniqsa pediatriyada qo'llanishini aniqlash.

Xar bir talaba dori moddalar shakllarini qo'liga olib aniqlab, pediatriyada ko'proq qo'llaniladigan moddalar shakli bilan tanishish.

Vazifa 5

Vaziyatli vazifalarni bajarish.

Vazifa 6

Xususiy farmakologiyadan blaknotga dori moddalarni jadvaldan ko'chirish va daftarga har bir mavzu bo'yicha retseptlar yozishni o'rganish.

1. Mahalliy anestetiklardan retseptlar yozish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Vazifa 7

1. Jadvallar, chizmalar, kimyoviy formulalar, slaydlarni ko'rish va taxlil qilish.
2. Elektron darslikdan "Umumiy farmakologiya" bo'yicha animatsion chizmalarni namoyishi.

3 jadval

Dori moddalarini teri ostiga, mushak orasiga, vena ichiga yuborish tavsifi

Ko'rsatkich	Teri ostiga	Mushak orasiga	Vena ichiga
1	2	3	4
Ta'siri boshla-nishi vaqti	Ko'pgina suvli eritmalar uchun 10-15 minutdan keyin		Ko'pincha in'ektsiya vaqtida
Ta'sir davomiyligi	Og'iz orqali yuborilganga ko'ra nisbatan qisqa vaqt		t/o, m/i yuborilganga nisbatan qisqa vaqt
Ta'sir kuchi	Bir xil miqdorda og'iz orqali yuborilganga nisbatan 2-3 marta yuqori		Og'iz orqali berilgan miqdor-ga nisbatan 5-10 marta yuqori
Dori moddani sterilligi	Shart		O'ta shart
Erituvchisi	Suv, kam holatda neytral yog'	Suv, neytral yog'	Faqat suv, alohi-da holatlarda zavodda tayyor-langan ultraemul-siyalar
Dori moddasi eruv-	Shart	Shart emas,	O'ta shart

chanligi		osmalar yuborilishi ham mumkin	
Qitqllovchi ta'siri yo'qligi	shart (nekroz bo'lishi mumkin)	Bo'lishi lozim	Qitqllovchi ta'sir bo'lmagani yaxshi. Ba'zi xol-larda qitqllovchi ta'sir ko'rsatuvchi moddalar yuboriladi. Ularni yuborilgandan keyin vena iliq fiziologik eritma bilan «yuvi-ladi».
Izotonikligi	Shart. Kuchli gipo va gipertonik eritmalar to'qimalar nekrozini chaqirishi mumkin		Agar 20-40 ml miqdorda yuborilsa shart emas.

Vazifa 8

Interaktiv vazifalarni «muammo hal qilish usuli» «asalari uyasi», «aylanma stol atrofida» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarning mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini tekshirish.

Talabani mashg'ulot yakunida bilim darajasini aniqlash uchun, uning retsepturadan bajargan vazifasini, faol so'rov, mustaqil bajarilgan (farmakodinamika, farmakoterapiyadan, vaziyatli vazifalarni, interaktiv vazifalarni bajarish), 1-8 vazifalarni bajarilishi va tekshirish savollar bo'yicha og'zaki so'rov o'tkaziladi.

Tekshiruv savollar - 1,2,3 darajali.

1. Dori moddalarni organizmga yuborish yo'llari (1)
2. Dori moddalarni enteral yuborish yo'li (1).
3. Dori moddalarni parenteral yuborish yo'li (1).
4. Dori moddalarni so'rilish mexanizmi (3).
5. Dori moddalarni organizmda tarqalishi (2).
6. Dori moddalarni organizmda depolanishi (3).
7. Organizmni biologik to'siqlari (2).
8. Biologik to'siqlari xususiyatlari (3).
9. Dori moddalarni metabolizmi (3).
10. Dori moddalarni eliminatsiyasi (1).
11. Dori moddalarni ta'sir qilish turlari (3).
12. Davolash turlari (2).
13. Dori moddalarni ta'sir mexanizmlari (3).
14. Dori moddalarni ta'sirini ishlatish sharoitiga bog'liqligi (2).
15. Dori moddalarni takror yuborishda ko'rinadigan xolatlar (3).
16. Sinergizm turlari (2).
17. Antagonizm va antidotizm (2).
18. Dori vositasini o'zaro ta'siri (3).

VI. Xulosa. Amaliy mashg'ulotda mavzu bo'yicha qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarilishi va talabalarni o'zlashtirishi yakunlanadi.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: dori moddalar shakllarini to'plami. Mavzu bo'yicha formulalar, rasmlar, jadvallar va slaydlar.

II. BO'LIM NEYROTROP MODDALAR.

Amaliy mashg'ulot 7

Mavzu: Maxaliy anestiziyalovchi moddalar.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Maxaliy anestiziyalovchi moddalarni farmakologik xususiyatlarini o'zlashtirish. Mavzu bo'yicha moddalar to'plami, chizmalar, jadvallar, kimyoviy formulalar, vaziyatli va interaktiv vazifalarni bajarish va taxlil qilish.

II. Vazifalar:

1. Maxaliy anesteziyalovchi moddalarni tasnifi, farmakodinamika, farmakokinetikasini, pediatriyada ularning moxiyatini bilish.
2. Farmakodinamika, farmakokinetikadan vazifalarni bajarish.
3. Amaliyotda ayniqsa pediatriyada keng qo'llaniladigan moddalarga retseptlarni yozishni bilish.
4. Vaziyatli, interaktiv vazifalarni bajarish.
5. Mavzu bo'yicha xulosa qilishni bilish.

III. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan asosiy savollar.

Mahalliy anesteziyalovchi, burishtiruvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, qitqlovchi moddalarni ta'sir mexanizmi, anesteziya turlari, qo'llanilishi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Mahalliy anesteziyalovchi moddalar, ta'sir mexanizmi.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Farmakodinamikadan vazifa.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.
2. Vaziyatli vazifalarni taxlil qilish.
3. Farmakoterapiyadan vazifa tanlangan moddalarga retseptlar yozish.
4. Referativ ma'lumotlarni eshitish va muxokama qilish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, moddalarni kimyoviy formulalari, slaydlarni ko'rish va muxokoma qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan berilgan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Retseptlarni mustaqil yozish va qo'llanilishini ko'rsatish.

1. Kokain gidroklorid eritmasi (ko'z tomchi).
2. Anestezin tabletkasi.

3. Infiltratsion anesteziya uchun novokain eritmasi.
4. Trimekain eritmasi, in'ektsiya uchun.
5. Lidokain eritmasi - in'ektsiya uchun.

II. Talabalarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun berilgan savollar asosida .

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javob-lardan to'g'risini tanlash.

1. Yuzaki anesteziya uchun qo'llaniladigan modda: a) novokain; b) anestezin; v) sovkain; g) tanin; d) trimekain.
 2. Infiltratsion anesteziya uchun qo'llaniladigan modda: a) kokain; b) trimekain; v) sovkain; g) anestezin.
 3. Hamma tur anesteziyada qo'llaniladigan anestetik: a) novokain; b) lidokain; v) trimekain; g) vismut nitrat; d) mentol.
 4. Anestetiklarni ta'sirini kuchaytiruvchi va uzaytiruvchi omillar: a) neytral muxit; b) kislotali muxit; v) to'qima ishemiyasi; g) adrenomimetiklar bilan birgalikda qo'llash.
 5. Anestezinni qo'llanilishi: a) xirurgik operatsiya; b) teri kasalligi qichimasi; v) gemorroy, to'g'ri ichak yorilmasi; g) umumiy anesteziya.
 6. Anestetiklarni ta'sir qilish mexanizmi: a) xolinoretseptorlarni falajlash; b) opiat retseptorlarni falajlash; v) adrenoretseptorlarni falajlash; g) MNS neyronlararo impulslarni o'tishini falajlash;
- d) neyron membranalarni natriy kanalini falajlash.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 4

Mavzu bo'yicha dori moddalar turlari bilan tanishish.

Xar bir talaba dori moddalarni qo'lga olib, qaysi kasallikda, ayniqsa pediatriyada qo'llanilishini aniqlash.

Vazifa 5

Vaziyatli vazifalarni tahlil qilish

Vazifa 6

Farmakoterapiyadan tanlangan moddalarga retseptlar yozish.

1. Terminal anesteziya uchun.
2. Infiltratsion anesteziya uchun.
3. O'tqazuvchan anesteziya uchun.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni ishlatish.

Vazifa 7

1. Formulalarni, jadvallarni, sxemalarni, slaydlarni, videofilmni taxlil qilish.
2. Elektron darslikdan "Mahalliy anestetiklarni ta'sir mexanizmi" bo'yicha animatsion chizmalarni namoyishi.

4 jadval

Anesteziya turiga va dori moddasini ta'sir davomiyligiga qarab ularni tanlash

Ta'sir davomiy-ligi	anesteziya				
	terminal jarroxlik anesteziya	jarroxlik bo'lmagan	infiltra-tsion	regionar	orqa miya
O'rtacha (20-60 min)	dikain ksikain	anestezin	novokain	novokain	novokain
Davomli (1-3 chas.)	sovkain ksikain		trimekain	trimekain	sovkain

5 jadval

Dori moddasini faolligi va zaharligini hisobga olib anesteziya turlarida dori moddasini tanlash va asoslash

Dori moddasi 1% eritma	Anesteziya vaqtida faolligi			1% eritma tok-sikligi (teri ostiga yuborilgan-da) novokainga nisbatan
	Yuza	infiltra-tsion	o'tkazuvchan	
Novokain	0,1	1	1	1
Kokain	1	3,5	1,9	5
Dikain	20	20	20	15
Trimekain	0,4	3,5	3,5	1,4
Ksikain	0,5	4	3	2
Sovkain	50	25	25	30

Vazifa 8

Interaktiv vazifalarni «aylanma stol atrofida», «qora quti», «asalari uyasi» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

Talabani mashg'ulot yakunida bilim darajasini aniqlash uchun, retsepturadan bajargan vazifasini, faol so'rov, mustaqil bajarilgan (farmakodinamika va farmakoterapiya, vaziyatli, interaktiv vazifalarni), 1-8 vazifalarni bajarilishi va tekshiruv savollar bo'yicha og'zaki so'rov o'tkaziladi.

Tekshiruv savollar - 1,2,3 darajali.

1. Anesteziya turlari (1).
2. Maxaliy anestetiklar (1).
3. Maxaliy anestetiklarni fizik kimyoviy xususiyati (2).
4. Maxaliy anestetiklarni ta'sir qilish mexanizmi (3).
5. Maxaliy anestetiklarni qo'llashga ko'rsatma (2).
6. Maxaliy anestetiklarni solishtirma tavsifi (3).
7. Maxaliy anestetiklarni nojo'ya ta'sirlari (3).
8. Kokain bilan o'tkir zaxarlanish (3).
9. Kokainizmni oldini olish, davolash (2).

VI. Xulosa. Amaliy mashg'ulotda maqsad va vazifalar bajarilishi va talabalarni mavzu bo'yicha o'zlashtirishi asosida yakunlanadi.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: dori moddalar to'plami - *kokain gidroklorid, anestezin, novokain, lidokain, dikain, trimekain, sovkain*.

Mavzu bo'yicha formulalar, rasmlar, jadvallar va slaydlar, diaproskop.

Videofilm: «Mahalliy anesteziyalovchi moddalar».

Amaliy mashg'ulot 8

Mavzu: Burishtiruvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, qitiqllovchi moddalar.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Burishtiruvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, qitiqllovchi moddalarni farmakologik xususiyatlarini o'zlashtirish. Mavzu bo'yicha moddalar to'plami, chizmalar, jadvallar, kimyoviy formulalar, vaziyatli va interaktiv vazifalarni bajarish va taxlil qilish.

II. Vazifalar:

1. Burishtiruvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, qitiqllovchi moddalarni tasnifi, farmakodinamika, farmakokinetikasini, pediatriyada ularning moxiyatini bilish.
2. Farmakodinamika, farmakokinetikadan vazifalarni bajarish.
3. Amaliyotda ayniqsa pediatriyada keng qo'llaniladigan moddalarga retseptlarni yozishni bilish.
4. Vaziyatli, interaktiv vazifalarni bajarish.
5. Mavzu bo'yicha xulosa qilishni bilish.

III. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan asosiy savollar.

Burishtiruvchi, o'rab oluvchi, adsorbtsiyalovchi, qitiqllovchi moddalarni ta'sir mexanizmi, anesteziya turlari, qo'llanilishi.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Burishtiruvchi moddalar, ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi.
2. O'rab oluvchi moddalar, ularni burishtiruvchi moddalardan farqi.
3. Adsorbtsiyalovchi moddalar, ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi.
4. Afferent nerv oxirlarini sezuvchanligini oshiruvchi-qitiqllovchi moddalarni farmakologiyasi.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Farmakodinamikadan vazifa.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.
2. Vaziyatli vazifalarni taxlil qilish.
3. Farmakoterapiyadan vazifa tanlangan moddalarga retseptlar yozish.
4. Referativ ma'lumotlarni eshitish va muxokama qilish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, moddalarni kimyoviy formulalari, slaydlarni ko'rish va muxokama qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

I. Retsepturadan berilgan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Retseptlarni mustaqil yozish va qo'llanilishini ko'rsatish.

1. Tanin eritmasi.
2. Dub po'stlog'i qaynatmasi.
3. Vismut nitrat tabletkasi.
4. Kraxmal shilimshig'i.
5. Aktivlangan ko'mir tabletkasi.

II. Talabalarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun berilgan savollar asosida .

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. Burushtiruvchi dori moddalarni ta'sir qilish mexanizmi: a) retseptorlarni falajlash; b) nerv oxirlarini qitiqlanishi; v) shilliq parda va terini yuza oqsil qavatini koagulyatsiyasi; g) fosfolipidlarni yuza tarangligini oshishi.
2. Chalg'ituvchi sifatida qo'llanuvchi moddalar: a) kraxmal; b) xantal; v) karbolen; g) talk.
3. Qaysi ferment ta'sirida sinegrindan xantal efir moyi hosil bo'ladi: a) xolinesteraza; b) adinilat siklaza; v) mirozin; g) monoaminooksidaza.
4. Mentolni qo'llanilishi: a) stenokardiya; b) operatsiyada anesteziya uchun; v) stomatit; g) pnevmoniya; d) kolit.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 4

Mavzu bo'yicha dori moddalar turlari bilan tanishish.

Xar bir talaba dori moddalarni qo'lga olib, qaysi kasallikda, ayniqsa pediatriyada qo'llanilishini aniqlash.

Vazifa 5

Vaziyatli vazifalarni tahlil qilish

Vazifa 6

Farmakoterapiyadan tanlangan moddalarga retseptlar yozish

1. Organik tuzilishdagi burishtiruvchi modda.
2. O'rab oluvchi modda.
3. Adsorbtsiyalovchi modda.
4. Qitiqlovchi modda.
5. Nafas markazini qo'zg'atuvchi modda.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni ishlatish.

Vazifa 7

1. Formulalarni, jadvallarni, sxemalarni, slaydlarni, videofilmni taxlil qilish.
2. Elektron darslikdan " Qitiqlovchi moddalarni ta'sir mexanizmi" bo'yicha animatsion chizmalarni namoyishi.

Vazifa 8

Interaktiv vazifalarni «aylanma stol atrofida», «qora quti», «asalari uyasi» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilimini aniqlash va baxolash.

Talabani mashg'ulot yakunida bilim darajasini aniqlash uchun, retsepturadan bajargan vazifasini, faol so'rov, mustaqil bajarilgan (farmakodinamika va farmakoterapiya, vaziyatli, interaktiv vazifalarni), 1-8 vazifalarni bajarilishi va tekshiruv savollar bo'yicha og'zaki so'rov o'tkaziladi.

Tekshiruv savollar - 1,2,3 darajali.

1. Burushtiruvchi dori moddalar (1).
2. Burushtiruvchi dori moddalarni ta'sir qilish mexanizmi (3).
3. Burushtiruvchi moddalarni qo'llanilishi (2).
4. O'rab oluvchi moddalar, burushtiruvchilardan farqi (2).
5. Adsorbtsiyalovchi moddalar (1).
6. Adsorbtsiyalovchi moddalarni ta'sir mexanizmi (2).
7. Adsorbtsiyalovchi moddalarni qo'llanilishi (2).
8. Qitiqlovchi moddalarni ko'rsating (1).
9. Xantalni farmakologiyasi (3).
10. Mentolni ta'siri (2).
11. Ammiak eritmasini ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi (3).

VI. Xulosa. Amaliy mashg'ulotda maqsad va vazifalar bajarilishi va talabalarni mavzu bo'yicha o'zlashtirishi asosida yakunlanadi.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: dori moddalar to'plami - *tanin, dub po'stlog'i qaynatmasi, qo'rg'oshin atsetat, vismut nitrat, aktivlangan ko'mir, mentol, amiak eritmasi.*

Mavzu bo'yicha formulalar, rasmlar, jadvallar va slaydlar, diaprektor.

Amaliy mashg'ulot 9

Mavzu: M-N xolinomimetiklar, M-xolinomimetiklar. Antixolinesteraz vositalar. M-xolinolitiklar.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni farmakologik xususiyatlarini o'zlashtirish. Mavzu bo'yicha moddalar to'plami, chizmalar, jadvallar, kimyoviy formulalar bilan tanishish va tahlil qilish.

II. Vazifalar:

1. Xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni tasnifi, farmakodinamika, farmakokinetikasini, pediatriyada ularning mohiyatini bilish.
2. Farmakodinamika, farmakokinetikadan vazifalarni bajarish.
3. Amaliyotda ayniqsa pediatriyada keng qo'llaniladigan moddalarga retseptlarni yozishni bilish.
4. Vaziyatli, interaktiv vazifalarni bajarish.
5. Mavzu bo'yicha xulosa qilishni bilish.

III. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan savollar:

M-N-xolinomimetiklar farmakologiyasi. M-xolinomimetiklar. Xolinesterazaga qarshi moddalar, M-xolinolitiklar.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. M va N xolinoretseptorlari faoliyatini oshiruvchi moddalar. Atsetilxolin va uni M, N-xolinoretseptorlarga ta'siri. Qo'llanilishi, karboxolinni atsetilxolindan farqi.

2. Antixolinesteraz moddalar - bilvosita M-N xolinomimetiklar, ta'sir mexanizmi. Qo'llanilishi. Fosfororganik birikmalar va ularni zaharligi.
3. M- xolinolitiklar, pilokarpin, atseklidinni ko'zga ta'siri (qorachiq kattaligi, ko'z ichki bosimiga, akkomadatsiyaga), ichki a'zolar silliq musqo'llariga, sekretiya bezlariga. Ta'sir qilish mexanizmi, ishlatishga ko'rsatma.
4. M-xolinoretseptorlarni bloklovchilar: M-xolinolitiklar atropin farmakologiyasi. Oftalmologiyada ishlatilishi. Spazmolitik xususiyati. MNS ga ta'siri. Mingdevona moddalari. Atropin tutuvchi o'simliklar bilan bolalarni zaxarlanishi. Skopolamin, platifillin, metatsin ta'sir qilish xususiyati.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Farmakodinamikadan vazifa.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.
2. Vaziyatli vazifalarni taxlil qilish.
3. Farmakoterapiyadan vazifa tanlangan moddalarga retseptlar yozish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, moddalarni kimyoviy formulalari, slaydlarni ko'rish va muxokama qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan berilgan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Retseptlarni mustaqil yozish va moddalarni qo'llanilishini ko'rsatish.

1. Prozerin.
2. Fizostigmin salitsilat, ko'z tomchisi.
3. Galantamin gidrobromidi.
4. Fosfakol ko'z tomchi.
5. Atropin sulfat, tabletkasi.
6. Atropin sulfat in'ektsiyasi.
7. Tropikamid ko'z tomchi.
8. Belladona ekstrakti shamchasi.
9. Platifilin gidrotartrat.
10. Metatsin tabletkasi.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar asosida.

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. M-xolinomimetiklar: a) pilokarpin; b) karboxolin; v) prozerin; g) atropin; d) galantamin.
2. M-xolinolitiklar: a) pilokarpin; b) karboxolin; v) prozerin; g) atropin; d) galantamin.

3. Antixolinesteraz moddalar: a) atropin; b) galantamin; v) karboxolin; g) pilokarpin; d) skopolamin.
4. Atsetilxolin ta'sirida: a) qorachiqni torayishi, ko'z ichki bosimini pasayishi; b) qorachiq kengayishi, ko'z ichki bosimni oshishi; v) yurak qisqarishlar sonini oshishi, qon bosimini oshishi; g) bronxlar kengayishi, bronx, MIT va so'lak bezlarini sekkretsiasini pasayishi.
5. Atropin va atropinsimon moddalarni ta'sirlari: a) qorachiq kengayishi, ko'z ichki bosimini oshishi; b) qorachiq torayishi, ko'z ichki bosimni pasayishi; v) bronx, MIT va so'lak bezlari sekretsiasini kuchayishi; g) yurak qisqarishlar sonini sekinlanishi.
6. Xolinomimetiklarni pediatriyada qo'llanilishi: a) ichak atoniyasi; b) bradikardiya; v) bradiaritmia; g) bronxial astma.
7. M-xolinomimetiklar bilan zaxarlanganda qanday modda qo'llaniladi: a) prozerin; b) skopolamin; v) atropin; g) talvasaga qarshi moddalar; d) morfin.
8. Fosfororganik birikmalar bilan zaxarlanishda qanday moddalar qo'llaniladi: a) atropin; b) prozerin; g) fosfakol; g) atseklidin.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 4

Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.

Xar bir talaba dori moddalarni qo'lga olib, qaysi kasallikda, ayniqsa pediatriyada qo'llanilishini aniqlash.

Vazifa 5

Vaziyatli vazifalarini bajarish.

Vazifa 6

Farmakoterapiyadan, tanlangan moddalarga retseptlar yozish.

1. Ichak atoniyasida qo'llaniluvchi modda.
2. Glaukomada qo'llaniluvchi modda.
3. Poliomieliit asoratini davolovchi modda.
4. Bronxospazmda qo'llaniluvchi modda.
5. Ko'z tubini o'rganish uchun qo'llaniluvchi modda.
6. Gemorragiyada qo'llaniluvchi modda.
7. Havo, dengiz kasalligida qo'llaniluvchi modda.
8. Sanchiqlarda qo'llaniluvchi modda.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Vazifa 7

1. Jadvallar, chizmalar, kimyoviy formulalar, slaydlarni ko'rish va taxlil qilish.
2. Elektron darslikdan "Atsetilxolinni ko'zga ta'siri", "M-xolinoretseptorlar", "Xolinesterazaga qarshi moddalar" bo'yicha animatsion chizmalarni namoyishi.

6 jadval

Fosfakol va prozerin bilan zaharlanganda yordam vositasini aniqlash.

Moddalar	Tanlab ta'sir etishi	
	M-xolinoretseptorlar	N-xolinoretseptorlar
Fosfakol,	Bradikardiya, qon bosimini pasayishi, bronxospazm, mioz, me'da-ichak tonusi va peristaltikasi ortishi	
Prozerin, galantamina gidrobromid		MNS qo'zg'alishi, mushaklar tonusi ortishi va qon bosimini ko'tarilishi, xansirash.

7 jadval

Atropinni farmakologik va zaxarli xususiyatlariga yuborilgan miqdoriga asoslanib M-xolinomimetiklar bilan o'tkir zaxarlanishi klinik ko'rinishini tuzish, belgilarni rivojlanish mexanizmini tushintirish va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish rejasini tuzish.

Miqdor	Asosiy effektlari
0,0005	Kuchsiz taxikardiya, og'iz qurishi.
0,001	Taxikardiya, qorachiqalar kamroq kengayishi, MIT tonusi va motorikasi susayishi, bronxlarni kengayishi.
0,002	Qorachiqalar kuchli kengayishi, kuchli taxikardiya.
0,003-0,005	Bezovtalik, mushaklar bo'shashishi, bosh og'rishi, tana harorati ko'tarilishi, siydik ajralishi qiyinlashishi.
0,007	Ko'ruv buzilishi, barcha turdagi sekretsialarni falajlanishi.
0,008	Ruhiiy qo'zg'alish xarakat koordinatsiyasi buzilishi, maksimal midriaz.
0,01	Apatiya, gallyutsinatsiya, deliriy, es - xushi buzilishi.

8 jadval

M - xolinoretseptorlarni falajlovchi moddalarni solishtirma tavsifi.

Modda ta'siri	Atropin	Gomotropin	Skopolamin	Platifillin	Metatsin
Midriaz: darajasi davomligi	++++ 7-10 kun	++ 10-20 s.	+++ 3-5 kun	+ 4-6s.	
Akkomadatsiya falajlanishi: darajasi, davomligi	++++ 8-10 kun	++ 12-24 s.	+++ 5-7 kun	+ 5-6 s.	
Ko'z ichki bosimi ortishi	++	++	+	+ (-)	
So'lak va bronxial bezlar sekretsiyasi susayishi	+++		+++	+	++++
Bronxlar tonusi susayishi	+++		++	+	++++
Me'da, ichak, o't va siydik yo'li tonusi-ni susayishi	+++		+++	++	+++
Taxikardiya	++		+	+ (-)	+
Tinchlantiruvchi ta'sir	++		+++	+ (-)	+ (-)
Parkinsonizmga qarshi	++		+++	+ (-)	
Analgetiklar ta'si-rini kuchaytirishi	++		++	+	+
Antixolinesteraz va M-xolinomimetik moddalarga nisbatan antagonizm	+++		++	+	++

Vazifa 8

Interaktiv vazifalarni «intsident usuli», «aylanma stol atrofida», «qora quti» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarning mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

Talabani mashg'ulot yakunida bilim darajasini aniqlash uchun, retsepturadan bajargan vazifasini, faol so'rov, mustaqil bajarilgan (farmakodinamika va farmakoterapiya, vaziyatli, interaktiv vazifalarni), 1-8 vazifalarni bajarilishi va tekshiruv savollar bo'yicha og'zaki so'rov o'tkaziladi.

Tekshiruv savollar - 1,2,3 darajali.

1. M-N xolinomimetiklar (1).
2. Atsetilxolin va karboxolin ta'sirlari (2).
3. Karboxolinni qo'llanilishi (2).
4. Antixolinesteraz moddalar tasniflanishi, ta'sir mexanizmi (2).
5. Antixolinesteraz moddalarni ta'siri, qo'llanilishi (2).
6. FOS bilan zaxarlanish va yordam (2).
7. M-xolinomimetiklar (1).
8. Antixolinesteraz moddalar va M-xolinomimetiklarni ta'sir qilish mexanizmini solishtirma tavsifi (3).
9. M-xolinomimetiklarni qo'llanilishi (2).
10. M-xolinomimetiklarni nojo'ya effekti (2).
11. M-xolinolitiklar, ta'sir mexanizmi (2).
12. Atropin sulfatni tavsifi (3).
13. M-xolinoblokatorlarni qo'llanilishi (2).
14. Belladonna usimligi bilan zaxarlanish va yordam (3).

VI. Xulosa. Amaliy mashg'ulotda maqsad va vazifalar bajarilishi va talabalarni mavzu bo'yicha o'zlashtirishi asosida yakunlanadi.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: dori moddalar to'plami - *prozerin, galantamin gidrobromid, pilokarpin gidroxlorid, atseklidin, atropin sulfat, skopolamin gidrobromid, platifillin gidrotartrat, metatsin.*

Mavzu bo'yicha formulalar, rasmlar, jadvallar, slaydlar, diaproektor.

Videofilm: M-xolinomimetiklar, M-xolinoblokatorlar.

Amaliy mashg'ulot 10

Mavzu: N-xolinomimetiklar. Ganglioblokatorlar. Kuraresimon moddalar.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: N-xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni farmakologik xususiyatlarini o'zlashtirish. Mavzu bo'yicha moddalar to'plami, chizmalar, jadvallar, kimyoviy formulalar bilan tanishish va taxlil qilish.

II. Vazifalar:

1. N-xolinoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni tasnifi, farmakodinamika, farmakokinetikasini bilish, pediatriyada ularning moxiyatini bilish.
2. Farmakodinamika, farmakoterapiyadan vazifalarni bajarish.
3. Amaliyotda ayniqsa pediatriyada keng qo'llaniladigan moddalarga retseptlarni yozishni bilish.
4. Vaziyatli, interaktiv vazifalarni bajarish.
5. Mavzu bo'yicha xulosa qilishni bilish.

III. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan savollar:

N-xolinomimetiklar, ganglioblokatorlar, kuraresimon moddalarni farmakologik xususiyatlari.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. N-xolinomimetiklar. Ta'sir mexanizmi. Qo'llanishi.
2. Ganglioblokatorlar. Ta'sir mexanizmi. Qo'llanishi.
3. Miorelaksantlar, kuraresimon moddalar. Ta'sir mexanizmi. Qo'llanishi.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Farmakodinamikadan vazifa.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.
2. Vaziyatli vazifalarni taxlil qilish.
3. Farmakoterapiyadan vazifa, tanlangan moddalarga retseptlar yozish.
4. Referativ ma'lumotlarni eshitish va muxokama qilish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, moddalarni kimyoviy formulalari, slaydlarni ko'rish va muxokama qilish.
2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan berilgan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Retseptlarni mustaqil yozish va moddalarni qo'llanilishini ko'rsatish.

1. In'ektsiya uchun lobelin gidroxlorid eritmasi.
2. In'ektsiya uchun sititon.
3. Pirilen tabletkada.
4. Benzogeksoniy tabletkada.
5. Pentamin eritmasi.
6. Gigroniy flakonda.
7. In'ektsiya uchun tubokurarin xlorid eritmasi.
8. Ditolin eritmasi in'ektsiya uchun.

II. Talabalarining boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar asosida.

Vazifa 3

Farmakodinamikadan keltirilgan savollarga rejalashtirilgan javoblardan to'g'risini tanlash.

1. N-xolinomimetiklar: a) pilokarpin; b) lobelin; v) atropin; g) atseklidin, d) ditilin; e) gigroniy.
2. Ganglioblokatorlar: a) lobelin; b) metatsin; v) pirilen; g) anatruxsoniy; d) melliktin; e) karboxolin.
3. Kuraresimon moddalarni ko'rsating: a) sititon; b) benzogeksoniy; v) gigroniy; g) ditilin; e) atropin sulfat.
4. Ganglioblokatorlarni ta'siri: a) tomirlar torayishi, gipertenziya; b) tomirlar kengayishi, gipotenziya; v) oshqozon-ichak tizimi sekretsiasini kuchayishi; g) skelet mushaklari tonusini oshishi; d) skelet mushaklari tonusini susayishi.

5. N-xolinomimetiklarni qo'llanilishi: a) xolinesterazaga qarshi moddalar bilan zaxarlanish; b) ganglioblokatorlar bilan zaxarlanish; v) is gazi bilan zaxarlanish; g) M-xolinomimetiklar bilan zaxarlanish.
6. Ganglioblokatorlarni qo'llanilishi: a) narkozdan keyin; b) SO₂ bilan zaxarlanish; v) gipertonik kriz; g) gipotoniya; d) qoqshol.
7. Kuraresimon moddalarni qo'llanilishi: a) gipertoniya; b) bronxoskopiya; v) SO₂ bilan zaxarlanish; g) ichak atoniyasi; d) narkozdan keyin.
8. Kuraresimon moddalar ta'sirlari: a) skelet mushaklarni tonusini oshishi; b) taxikardiya; v) miorelaksatsiya; g) diplopiya.
9. Kuraresimon moddalarning nojo'ya ta'siri: a) tomir siqilishi; b) gipotoniya; v) qaltirash; g) nafas to'xtashi; d) mushak og'rig'i.
10. Depolyarizatsiyaga qarshi kuraresimon moddalar dozasi oshib ketganda qanday moddalar qo'llaniladi: a) pilokarpin; b) atropin; v) ditilin; g) prozerin; e) sititon.
11. Depolyarizatsiyalovchi kuraresimon moddalar dozasi oshganda yordam choralari: a) prozerin; b) atropin; v) sitratlangan qon; g) ditilin; d) sititon; e) pirilen.
12. N-xolinomimetiklarni nojo'ya ta'siri: a) arterial bosimni ko'tarilishi; b) arterial bosimni tushishi; v) mushaklarni bo'shashishi; g) og'iz qurishi.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

Vazifa 4

Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.

Xar bir talaba dori moddalarni qo'liga olib, qaysi kasallikda, ayniqsa pediatriyada qo'llanilishini aniqlash.

Vazifa 5

Vaziyatli vazifalarni bajarish.

Vazifa 6

Farmakoterapiyadan tanlangan moddalarga retseptlar yozish.

1. Nafas olishni oshiruvchi modda.
2. Oshqozon yara kasalligida qo'llaniladigan modda.
3. Boshqaruvchi gipotoniya uchun modda.
4. Narkozdan keyin nafasni oshiruvchi modda.
5. Ko'krak qafasi jarroxligida qo'llaniladigan modda.

Vazifa 7

Referativ ma'lumotlarni eshitish va taxlillash.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

Vazifa 8

1. Jadvallar, chizmalar, kimyoviy formulalar, slaydlarni ko'rish va taxlil qilish.
2. Elektron darslikdan "Nerv mushak o'tkazuvchanligi sxemasi" bo'yicha animatsion chizmalarni namoyishi.

9 jadval

Ganglioblokatorlarni solishtirma tavsifi

Dori moddasi	Yuborish yo'li	Ta'sir davomi	Ta'siri	Ta'sir mexanizmi
Benzogeksoniy	v/i	1-2s	Tomirlar to-nusi pasayishi (ayniqsa arteriolalar va	Simpatik nervlarni gangliy-lari, buyrak usti bezi xromaffin hujayralarini falajlash (endogen katexolaminlarni kamayishi)

			venulalar)	
	m/o ichishga	1-3s 2-4s	me'da, ichak, o't, peshob yo'li sekretsiyasi, tonusini pasayishi	Parasimpatik nervlarini gangliylarini falajlanishi
Gigroniy	v/i	10-15 min	O'sha ta'sir, ko'proq qon- tomirlarga bo'lgan ta'sir	O'shandoq
Pirilen	ichishga	8-12 min	Gigroniyga o'xshash	O'shandoq
Paxikarpin	m/o t/o ichishga	2-3s 2-3s 3-5s	Benzogeksoniyg a o'xshash, tu- g'ish faoliyati-ni kuchaytirish	Quyi mezenterial gangliya-larni falajlash va bachadon mushaklariga oksitotsin va follikulinga nisbatan sezuv- chanlikni oshirish

10 jadval

Depolyarizatsiyaga qarshi miorelaksantlarni miqdori oshganda ko'riladigan yordam choralari

Ko'rsatkichlar	Depolyarizatsiyaga qarshi	Depolyarizatsiyalovchi
Ta'sir mexanizmi	Atsetilxolin bilan raqobat	Membranalarni mustah- kam depolyarizatsiyasi
Mushak bo'shashishi oldi- dan fibrillyatsiya	Yo'q	Kuchli rivojlangan
Antixolinesteraz moddalar bilan o'zaro ta'sir	Ta'sirini susayishi (dekurarizatsiya)	ta'sirini kuchayishi

Vazifa 9

Interaktiv vazifalarni «miyaga hujum», «aylanma stol atrofiga», «qora quti» usullari bilan o'tkazish.

V. Talabalarining mashg'ulot yakunidagi bilimni aniqlash va baxolash.

Talabani mashg'ulot yakunida bilim darajasini aniqlash uchun, retsepturadan bajargan vazifasini, faol so'rov, mustaqil bajarilgan (farmakodinamika va farmakoterapiya, vaziyatli, interaktiv vazifalarni), 1-9 vazifalarni bajarilishi va tekshiruv savollar bo'yicha og'zaki so'rov o'tkaziladi.

Tekshiruv savollar - 1,2,3 darajali.

1. N-xolinomimetiklar, ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi (3).
2. Nikotinni ta'sir mexanizmi (3).
3. Nikotin bilan o'tkir va surunkali zaxarlanish. Nikotinizmni oldini olish (2).
4. Ganglioblokatorlar (1).
5. Ganglioblokatorlarni simpatik va parasimpatik tugunlarga ta'siri (2).
6. Ganglioblokatorlarni pediatriyada qo'llash xususiyatlari (3).
7. Ganglioblokatorlarni qo'llanilishi, nojo'ya ta'sirlari (2).
8. Kuraresimon moddalar (1).
9. Depolyarizatsiyalovchi kuraresimon moddalarni ta'sir mexanizmi (2).
10. Depolyarizatsiyaga qarshi kuraresimon moddalarni ta'sir mexanizmi (2).

11. Kuraresimon moddalarning qo'llanilishi (2).
12. Miorelaksantlarni dozasi oshishi va yordam choralari (3).

VI. Xulosa. Amaliy mashg'ulotda maqsad va vazifalar bajarilishi va talabalarni mavzu bo'yicha o'zlashtirishi asosida yakunlanadi.

Mashg'ulotni moddiy ta'minlanishi: dori moddalar to'plami - *lobelin gidroklorid, sititon, benzogeksoniy, pirilen, pentamin, gigroniy, tubakurarin xlorid, pipekuroniy bromid, melliktin, ditilin, dioksoniy*.

Mavzu bo'yicha formulalar, rasmlar, jadvallar va slaydlar, diaproskop.

Videofilm: «N-xolinoretseptorlarga ta'sir qiluvchi vositalar».

Amaliy mashg'ulot 11

Mavzu: Adrenomimetiklar.

Soat soni - 2.

I. Maqsad: Adrenoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni farmakologik xususiyatlarini o'zlashtirish. Mavzu bo'yicha moddalar to'plami, chizmalar, jadvallar, kimyoviy formulalar tanishish va taxlil qilish.

II. Vazifalar:

1. Adrenoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni tasnifi, farmakodinamika, farmakokinetikasini, pediatriyada ularning moxiyatini bilish.
2. Farmakodinamika, farmakoterapiyadan vazifalarni bajarish.
3. Amaliyotda ayniqsa pediatriyada keng qo'llaniladigan moddalarga retseptlarni yozishni bilish.
4. Vaziyatli, interaktiv vazifalarni bajarish.
5. Mavzu bo'yicha xulosa qilishni bilish.

III. Amaliy mashg'ulotda ko'riladigan savollar:

Adrenoretseptorlarga ta'sir etuvchi moddalarni farmakologik xususiyatlari.

α , β -adrenomimetiklar, α -adrenomimetiklar, β -adrenomimetiklar. Simpa-tomimetiklar.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar.

1. Bevosita ta'sir etuvchi α va β -adrenomimetiklar. Ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi.
2. Bilvosita ta'sir etuvchi α , β adrenomimetiklar. Ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi.
3. α -adrenomimetiklar, ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi.
4. β -adrenomimetiklar, ta'sir mexanizmi, qo'llanilishi.

Mashg'ulot rejasi.

I. Retsepturadan vazifani tekshirish.

II. Talabalar boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

1. Faol so'rov.
2. Farmakodinamikadan vazifa.

III. UIRS. Talabalar uchun mustaqil ish.

1. Mavzu bo'yicha dori moddalar to'plami bilan tanishish.
2. Vaziyatli vazifalarni taxlil qilish.
3. Farmakoterapiyadan vazifa tanlangan moddalarga retseptlar yozish.

IV. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash.

1. Jadvallar, chizmalar, moddalarni kimyoviy formulalari, slaydlarni ko'rish va muxokoma qilish.

2. Interaktiv vazifalarni bajarish.

V. Talabalarning mashg'ulot yakunidagi bilim darajasini aniqlash va baxolash.

VI. Xulosa.

Mashg'ulot rejasini amalga oshirish.

I. Retsepturadan berilgan vazifani tekshirish.

Vazifa 1

Retseptlarni mustaqil yozish va moddalarni qo'llanilishini ko'rsatish.

1. Adrenalin gidroklorid eritmasi in'ektsiya uchun.
2. Noradrenalin gidroklorid eritmasi in'ektsiya uchun.
3. Mezaton eritmasi in'ektsiya uchun.
4. Naftizin flakonda.
5. Ingalyatsiya uchun izadrin.
6. Salbutamol tabletkada.
7. Efedrin gidroklorid eritmasi in'ektsiya uchun.

II. Talabalarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash.

Vazifa 2

Faol so'rov. Mustaqil tayyorlanish uchun savollar asosida.

Vazifa 3

